

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI KENGASHINING**  
**2022/2023 O'QUV YILI 1 - YIG'ILISH**  
**BAYONI**

2022-yil 30 avgust  
Katta yig'inlar zali

Buxoro shahri  
soat 9:00

**Raislik qildi:** **O.X. Xamidov** – kengash raisi, Buxoro davlat universiteti rektori, i.f.d., prof.  
**Ishtirok etganlar:** **N.G. Dilova** – kengash kotibi, p.f.f.d. (PhD), dots.  
BuxDU kengashi a'zolari umumiy soni: 77 nafar  
Qatnashdi: 74 nafar kengash a'zosi va taklif qilinganlar (ro'yxat asosida)

Buxoro davlat universiteti kengashining 2022-2023 o'quv yilining 1-yig'ilishini kengash raisi, universitet rektori, i.f.d., professor O.X. Xamidov ochib berdi.

Kengash raisi bugungi 1-kengash yig'ilishida 77 nafar kengash a'zosidan 74 nafari ishtirok etayotganligini, 3 nafar kengash a'zosi sababli bugungi kengashda ishtirok etmayotganligini ma'lum qilib, yig'ilishni ochish to'g'risidagi masalani kengash a'zolari hukmiga havola etdi. Kengash a'zolari yig'ilishni ochiq deb qabul qilishni bir ovozdan ma'qullashdi.

Shundan so'ng, kengash kun tartibi o'qib eshittirildi.

**Tashkiliy qism:** **Tabrik**

Kengash a'zolari va universitet jamoasini 1-sentabr Mustaqillik kuni bilan tabriklash

Buxoro davlat universiteti rektori, kengash raisi O.X. Xamidov barcha kengash a'zolarini va ular orqali butun jamoani 1-sentabr Mustaqillik kuni bilan tabrikladi, o'zining samimiy tilaklarini bildirdi.

Shundan so'ng, Oliy Attestatsiya komissiyasi qarori bilan tasdiqlangan ilmiy unvon va ilmiy daraja olgan professor-o'qituvchilar hamda turli tanlov g'oliblari taqdirlandi.

Kengash o'z ishini davom ettirdi.

**KUN TARTIBI:**

**I. Universitet jamoasi bilan amalga oshiriladigan masalalar yo'nalishi bo'yicha:**

**1.1.** O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Hay'at majlisida ko'rilgan masalalar hamda universitetning yangi o'quv yiliga tayyorgarlik holati to'g'risida

**1.2.** Universitet kengashining 2022/2023 o'quv yili uchun ish rejasi va kengash a'zolarining va fakultet kengashlari a'zolarining yangi tarkibini tasdiqlash to'g'risida

**Ma'ruzachi: Rektor O.X. Xamidov**

**II Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishi bo'yicha:**

**2.1.** O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 31 yilligini «Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz» shiori ostida nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'ni o'tkazish to'g'risida

**2.2.** Respublika oliy ta'lim muassasalari Birinchi prorektor (direktor o'rinbosarlari)lari uchun 2022-yil 13-14-oktabr kunlari «**Birinchi prorektorlar hamjihatlik haraqati 1-forumi**»ni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada tashkil etish to'g'risida

**2.3.** 2022-2023 o'quv yili davomida Buxoro davlat universitetida amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasini tasdiqlash to'g'risida

**Ma'ruzachi: Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha Birinchi prorektor A.A. Amonov axboroti**

**III O'quv jarayoni yo'nalishi bo'yicha:**

3.1. 2022/2023 o'quv yiliga tayyorgarlik bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va dolzarb vazifalar to'g'risida.

3.2. Universitet o'quv-metodik kengashining 2022/2023 o'quv yili uchun yillik ish rejasini tasdiqlash to'g'risida

**Ma'ruzachi: O'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'. Jumavev axboroti**

**IV. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar yo'nalishlari bo'yicha:**

4.1. Buxoro davlat universitetida 2022-yil yil avgust holatida ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalar sohasida amalga oshirilgan ishlar va rejalashtirilgan tadbirlar to'g'risida

4.2. Universitet ilmiy - texnik kengashining 2022/2023 o'quv yili uchun yillik ish rejasini tasdiqlash to'g'risida

**Ma'ruzachi: Ilmiy tadqiqot va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash bo'lim boshlig'i G. Zaripov axboroti**

**V. Xalqaro hamkorlik bo'yicha:**

5.1. Xalqaro hamkorlik hamda Xorijiy OTMLar bilan hamkorlik ishlarining tashkil etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va vazifalar to'g'risida.

5.2. Xorijlik talabalar uchun shartnoma to'lovlarini belgilash bo'yicha takliflarni ko'rib chiqib tasdiqlash (Moliya va rejalashtirish bo'limi bilan birgalikda)

**Ma'ruzachi: Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor A.T.Jo'rayev axboroti**

**VI. TSNQB bo'yicha:**

6.1. Universitet professor-o'qituvchilarining 2021-2022 o'quv yilidagi faoliyati samaradorligini o'rganish natijalari to'g'risida

6.2. Universitet TSNQBning 2022/2023 o'quv yili uchun yillik ish rejasini tasdiqlash.

**Ma'ruzachi: TSNQB boshlig'i Z.Nurov axboroti**

**VII. Turli masalalar.**

7.1. Ta'lim yo'nalishlarining va mutaxassisliklarning o'quv jarayoni jadvali, ishchi o'quv rejalar, tanlov fan dasturlari va professor-o'qituvchilarning shaxsiy ish rejalarini tasdiqlash hamda ilmiy darajasi bo'lmagan o'qituvchilarga ma'ruza soatlarini ajratish to'g'risida

7.2. O'quv-uslubiy boshqarma to'g'risida Nizomni tasdiqlash to'g'risida.

7.3. O'zbekiston yoshlar ittifoqining Buxoro davlat universitetidagi Boshlang'ich tashkiloti yetakchilar Kengashining 2022/2023 o'quv yiliga mo'ljallangan Buxoro davlat universiteti talabalari orasida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy-tarbiyaviy ishlari va faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash to'g'risida

7.4. Buxoro davlat universitetida o'quv semestri yakuni bo'yicha fanlarni o'zlashtirayotgan, iqtidorli, jamoat ishlarida faol bo'lgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan talabalarni moddiy rag'batlantirish tartibiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida

7.5. Buxoro davlat universiteti yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotining TTJ dagi "Qalqon" guruhi Nizomini tasdiqlash

7.6. Professorlik va dotsentlik unvoniga tavsiya qilish uchun professor - o'qituvchilarning attestatsiya ishi hujjatlarini OAK ga yuborish to'g'risida

7.7. Fan doktori (PhD), (DSc) doktorlik dissertatsiya mavzusi va ilmiy maslahatchini tasdiqlash to'g'risida.

**7.8.** Universitetga xorij OTMlarda faoliyat olib boruvchi o'qituvchilar, tadqiqotchilar, vatandoshlarni jalb qilish bo'yicha ro'yxatni tasdiqlash to'g'risida

**7.9.** Buxoro davlat universitetida 2022-2023 o'quv yili uchun 1 ta talabning talabalar turar joyida bir oy istiqomat qilish miqdorini belgilash to'g'risida

**7.10** Qo'shma ta'lim dasturlari bakalavr yo'nalishlarida grantga qabul qilish tartibini tasdiqlash

**7.11.** Ilmiy ijodiy ta'til berish haqida

**7.12.** Ish jarayonida yo'l qo'ygan kamchiliklari uchun berilgan intizomiy jazo ("hayfsan")ni muddatidan oldin bekor qilish to'g'risida

Kengash raisi kun tartibiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish mumkinligini ma'lum qilib, kun tartibini tasdiqlab berishni ovozga qo'ydi. Kengash a'zolari kun tartibini bir ovozdan ma'qullashdi hamda masalalar muhokamasi reglamenti belgilab olindi.

**Ushbu kun tartibi va reglamenti xususida takliflaringiz bormi?**

**Ovozlar:** tasdiqlansin.

**RAIS:** kun tartibini tasdiqlash to'g'risida taklif bo'ldi. Uni ovozga qo'yaman.

Tarafdorlar 74 nafar

Qarshilar – yo'q.

Betaraflar – yo'q.

Demak, kun tartibi tasdiqlandi. Kun tartibidagi masalalar muhokamasiga o'tamiz.

## KUN TARTIBI BO‘YICHA MASALALAR MUHOKAMASIGA O‘TILDI

### I. Universitet jamoasi bilan amalga oshiriladigan masalalar yo‘nalishi bo‘yicha:

#### 1.1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi Hay‘at majlisida ko‘rilgan masalalar hamda universitetning yangi o‘quv yiliga tayyorgarlik holati to‘g‘risida

**ESHITILDI: O.X. Xamidov (kengash raisi, rektor)** kengash a‘zolariga O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi Hay‘at majlisida ko‘rilgan masalalar haqida ma‘lumot berdi. Bugungi kunda oliy ta‘limni modernizatsiya qilish, sifatli ta‘limni tashkil etish hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan **O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasining** qabul qilinishi ushbu sohadagi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

**Barchaga ma‘lumki**, akademik mustaqillik deganda, ma‘muriy-boshqaruv siyosatini belgilash, ta‘lim jarayonini tashkil etish, ta‘lim sifatini nazorat qilish, ilmiy va boshqa yo‘nalishlarda ta‘lim muassasasining to‘liq mustaqilligi tushuniladi.

Yuqoridagi Konsepsiyada belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida ijro qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat oliy ta‘lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 24-dekabrda PQ-60-son qarori qabul qilindi. Ushbu Konsepsiyada ham oliy ta‘lim muassasalarining **akademik va moliyaviy mustaqilligini ta‘minlash** oliy ta‘limdagi asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Yuqoridagilarga asoslangan holda biz 2022-yil 4-iyuldagi 11-kengash qarori bilan universitetning tashkiliy strukturaviy tuzilmasini tasdiqlab oldik. Oliy ta‘lim tizimini rivojlantirishning rivojini yangi bosqichga ko‘tarish, ta‘lim jarayonida xorijiy tajribalarga asoslanish, zamonaviy o‘qitish mexanizmini takomillashtirish va bozor talablariga javob beradigan yuqori salohiyatli kadrlar yetkazib berish hamda **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyayev rahbarligida 2022-yil 4-avgust kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 61-bayoni 6-bandida** salohiyatli kadrlarga bo‘lgan talabni qondirishga oid topshiriqlar ijrosini ta‘minlash hamda oliy ta‘limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta‘limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta‘lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida fakultet va kafedralar tarkibi qayta ko‘rib chiqildi va 50% darajada yangilandi.

Шу билан бирга universitetning yangi o‘quv yiliga tayyorgarlik holati to‘g‘risida axborot berdi.

Kun tartibi bo‘yicha **universitet kengashi tarkibiga o‘zgartirish** kiritish haqida axborot berildi.

Shuningdek, - Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi Hay‘at Kengash majlisida ko‘rilgan masalalar yuzasidan qabul qilingan qarorlari ijrosi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son farmoni ijrosi bo‘yicha universitetda qilinayotgan ishlar, Fakultetlarda ta‘limni kredit modul tizimi asosida tashkil etilishi holati, tahlil natijalari haqida fikr bildirildi.

Yuqoridagi masalalar bo‘yicha kengash a‘zolarining fikr mulohazalari eshitildi.

Ushbu masala bo‘yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Kengash raisi O.X. Xamidovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi Hay‘at majlisida ko‘rilgan masalalar hamda universitetning yangi o‘quv yiliga tayyorgarlik holati to‘g‘risidagi axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Hay'at majlisida ko'rilgan masalalar haqidagi ma'lumotlar barcha kafedra professor - o'qituvchilariga ma'lumot tariqasida yetkazilsin.
3. Ushbu qaror ijro nazorati fakultet dekanlari, bo'lim boshliqlari va kafedra mudirlari zimmasiga yuklatilsin

**1.2. Universitet kengashining 2022/2023 o'quv yili uchun ish rejasi va kengash a'zolarining va fakultet kengashlari a'zolarining yangi tarkibini tasdiqlash to'g'risida**  
**Ma'ruzachi: Rektor O.X. Xamidov**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2011-yil 3-dekabr 487-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasining Ilmiy kengashi to'g'risida namunaviy Nizom"ning 2- va 3-bandlari hamda Universitet kengashining nizomiga asosan, har xil sabablarga ko'ra universitet kengashi tarkibidan chiqarilgan va kiritilgan kengash a'zolarining yangi tarkibi tashkil etilganligini ma'lum qildi. 2022-2023 o'quv yilida kengash tarkibiga prorektorlar, fakultet dekanlari mutaxassis chiqaruvchi kafedra mudirlari, universitet tarkibidagi muassasalar rahbarlari va bo'lim boshliqlaridan iborat 77 nafar kengash a'zolaridan tarkib topganligi ta'kidlab o'tdi.

**Buxoro davlat universiteti kengashining a'zolari tarkibi (loyiha)**

<b>№</b>	<b>Kengash a'zolarining F.I.O</b>	<b>Lavozimi va ilmiy darajasi</b>
1.	Xamidov Obidjon Xafizovich	<b>BuxDU kengashi raisi,</b> BuxDU rektori, i.f.d., professor
2.	Jumayev Rustam G'aniyevich	<b>Kengash raisi o'rinbosari,</b> O'quv ishlari bo'yicha prorektor, s.f.f.d. (PhD), dotsent
3.	Amonov Azizbek Amonjonovich	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha 1-prorektor, s.f.f.d. (PhD)
4.	Jo'rayev Abror Turobovich	Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, i.f.n., dotsent
5.	Rashidov O'lmasjon Umarovich	Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor
6.	Tursunov Murod Amonovich	O'quv-uslubiy departament boshlig'I, k.f.f.d. (PhD), dotsent
7.	Muqimov Komil Muqimovich	O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi akademigi, professor
8.	Zaripov Gulmurod Toxirovich	Ilmiy tadqiqot va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash bo'lim boshlig'i, t.f.n., dotsent
9.	Kobilov Baxtiyor Badriddinovich	BuxDU Xodimlar va talabalar kasaba uyushma qo'mitasi raisi
10.	Qahhorov Siddiq Qahhorovich	"Nuroni" jamg'armasining BuxDU faxriylar jamoatchilik kengashi, p.f.d., professor
11.	Adizov Baxtiyor Raxmonovich	BuxDU huzuridagi pedagogik kadrlar MO va QT mintaqaviy markazi direktori, p.f.d., professor
12.	Eshankulov Xamza Ilxomovich	Axborot texnologiyalari fakulteti dekani, t.f.f.d. (PhD)
13.	Rajabov Dilshod Zaripovich	Filologiya fakulteti dekani, f.f.d., professor
14.	Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich	Fizika-matematika fakulteti dekani, p.f.d., professor
15.	Yavmutov Dilshod Shoyimardonqulovich	Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani, i.f.n., dotsent
16.	Tuxsanov Kaxramon Raximboyevich	Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti dekani, f.f.d., professor
17.	Ma'murov Bahodir Baxshullaevich	Sport fakulteti dekani, p.f.d., professor
18.	Artikova Hafiza To'ymurodovna	Agronomiya va biotexnologiya fakulteti dekani, b.f.d., professor
19.	Azimov Sanjar Samadovich	San'atshunoslik fakulteti dekani, p.f.f.d. (PhD)

20.	Niyozov Erkin Dilmurodovich	Tabiiy fanlar fakulteti dekani, t.f.n., dotsent
21.	Jo'rayev Jamshid Raxmatullayevich	Tarix va yuridik fakulteti dekani v.v.b.
22.	Ataboyev Nozimjon Bobojon o'g'li	Xorijiy tillar fakulteti dekani, f.f.f.d. (PhD)
23.	Narziyev Zubaydullo Ibodullayevich	Sirtqi (maxsus sirtqi) bo'lim boshlig'i, f.f.f.d. (PhD)
24.	Umarov Otabek Rafoilovich	Agronomiya va tuproqshunoslik kafedrası mudiri v.v.b., q-x.f.f.d. (PhD)
25.	Yuldoshov Laziz Tolibovich	Biotexnologiya va oziq-ovqat xavfsizligi kafedrası mudiri v.v.b., b.f.f.d (PhD)
26.	Xolliyev Askar Ergashevich	Botanika va o'simliklar fiziologiyasi kafedrası mudiri, b.f.d., professor
27.	Toshov Xayot Muxammadovich	Zoologiya va umumiy biologiya kafedrası mudiri v.v.b., b.f.f.d (PhD)
28.	Jalolov Ozodjon Isomiddinovich	Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrası mudiri, f.-m.f.n.
29.	Shafiyev Tursun Rustamovich	Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrası mudiri, t.f.f.d. (PhD)
30.	Eshonqulov Husniddin Primovich	O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, f.f.d., dotsent
31.	Rajabov Dilshod Zaripovich	O'zbek tilshunosligi kafedrası mudiri v.v.b., f.f.d., professor
32.	Nosirov Otabek Temirovich	Rus tilshunosligi kafedrası mudiri v.v.b.
33.	Nigmatova Lolaxon Xamidovna	Rus adabiyotshunosligi kafedrası mudiri v.v.b., f.f.d., dotsent
34.	Fayziyev Shaxobiddin Shavkatovich	Fizika kafedrası mudiri, f.-m.f.f.d. (PhD), dotsent
35.	Rahmatov Ilhom Ismatovich	Qayta tiklanuvchi energiya manbalari kafedrası mudiri v.v.b., f.-m.f.n, dotsent
36.	Dilmurodov Elyor Baxtiyorovich	Matematik analiz kafedrası mudiri, f-m.f.f.d. (PhD)
37.	Durdiyev Umid Durdimurodovich	Differensial tenglamalar kafedrası mudiri, f-m.f.f.d. (PhD)
38.	Murtazoyev Azizbek Nusratovich	Elektronika va texnologiya kafedrası mudiri, , t.f.f.d. (PhD)
39.	Abdullayev Asliddin Junaydullayevich	Iqtisodiyot kafedrası mudiri, i.f.f.d. (PhD) dotsent
40.	Sherov Anvar Umarovich	Agrobiznes va logistika kafedrası mudiri v.b., i.f.f.d. (PhD)
41.	Sunnatov Yusuf Usmonovich	Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası mudiri v.b., i.f.f.d. (PhD)
42.	Xurramov Ortiq Qayumovich	Marketing va menejment kafedrası mudiri v.b., dotsent
43.	Ibragimov Nutfillo Salimovich	Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası mudiri, i.f.d. (DSc), dotsent
44.	Qo'ldoshev Rustam Avezmurodovich	Maktabgacha ta'lim kafedrası mudiri, p.f.f.d. (PhD)
45.	Ro'ziyeva Mohichehra Yoqubovna	Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası mudiri, f.f.f.d. (PhD), dotsent
46.	Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich	Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrası mudiri, p.f.d., dotsent
47.	Olimov Shirinboy Sharopovich	Pedagogika kafedrası mudiri, p.f.d., professor
48.	Shukurov Rahim Salimovich	Sport nazariyasi va metodikasi kafedrası mudiri, professor
49.	Sattorov Anvar Ergashovich	Sport faoliyati kafedrası mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent
50.	Xolov Yoqub Davronovich	Ekologiya va geografiya kafedrası mudiri b.f.f.d. (PhD)
51.	Nazarov Sayfullo Ibodullayevich	Umumiy va noorganik kimyo kafedrası mudiri, t.f.n., dotsent

52.	Abduraxmonov Sayfiddin Fayzullaevich	Organik va fizkolloid kimyo kafedrası mudiri v.b., k.f.f.d. (PhD)
53.	Temirov Farrux Umidovich	Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası mudiri, t.f.f.d. (PhD)
54.	Rashidov Oybek Rasulovich	Jahon tarixi kafedrası mudiri, t.f.f.d. (PhD) dotsent
55.	Muzaffarov Firuz Davronovich	Yurisprudensiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrası mudiri, f.f.f.d. (PhD) dotsent
56.	Namozov Bobir Baxriyevich	Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrası mudiri, f.f.d., dotsent
57.	Nazarov Akmal Mardonovich	Psixologiya va sotsiologiya kafedrası mudiri v.b., p.f.f.d., (PhD) dotsent
58.	Mamatov Dilshod Kodirovich	Tasviriy va amaliy san'at kafedrası mudiri, p.f.f.d., (PhD), dotsent
59.	Rajabov To'xtasin Ibodovich	Musiqqa ijrochiligi va kafedrası mudiri, p.f.f.d., (PhD), dotsent
60.	Rasulov Zubaydullo Izomovich	Ingliz tilshunosligi kafedrası mudiri, f.f.n., dotsent
61.	Xodjayeva Dilafro'z Izatilloevna	Ingliz adabiyotshunosligi kafedrası mudiri v.b., f.f.f.d, dotsent
62.	Bobokalonov Odilshoh Ostonovich	Fransuz tillari kafedrası mudiri v.b.
63.	Ro'ziyev Yarash Bozorovich	Nemis tillari kafedrası mudiri v.b. f.f.n., dotsent
64.	Kosimova Nafisa Farxadovna	Tarjimashunoslik va lingvodidaktika kafedrası mudiri, PhD, dotsent
65.	Fayzullayev Otabek Muhammedovich	Fakultetlararo chet tillari kafedrası mudiri v.b., f.f.f.d. (PhD), dotsent
66.	Nurov Ziyodulla Saymurodovich	Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, i.f.f.d. (PhD)
67.	Turayev Akmal Atayevich	Magistratura bo'limi boshlig'i, f-m.f.f.d. (PhD) dotsent
68.	Hamidov Saidjon Komiljonovich	Marketing va karyera bo'limi boshlig'i
69.	Adizov Baxtiyor Ismatovich	Raqamli iqtisodiyot va inson resurs larini boshqarish markazi rahbari
70.	Qilichev Akram Abdusamadovich	Murojaatlar bilan ishlash, nazorat va ish yuritish boshqarmasi boshlig'i
71.	Karimov Feruz Raimovich	Yoshlar ittifoqi BuxDU boshlang'ich tashkiloti yetakchisi
72.	Adizova Obodon Istamovna	Xotin-qizlar kengashi raisi, f.f.f.d. (PhD), dotsent
73.	Sharapov Shuhrat Shakirovich	Katta yuristkonsult
74.	Fayziyeva Umida Asadovna	Inson resurslarini boshqarish departamenti boshlig'i
75.	Raximov Olim Homitovich	Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiglashtirish bo'limi boshlig'i
76.	Quliyev Yorqin Karimovich	Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi
77.	Dilova Nargiza Gaybullayevna	BuxDU kengashi kotibi, p.f.f.d. (PhD), dotsent

Yangi 2022-2023 o'quv yili uchun ishlab chiqilgan BuxDU kengashi ish rejasi loyihasi barcha prorektorlar, bo'lim boshliqlari va fakultetlar dekanlari taklif mulohazalari asosidagi matn rektor tomonidan ko'rib chiqilib, tegishli taklif va tuzatishlardan keyin tayyorlanganligi hamda ish rejaning to'liq matni universitet saytiga joylashtirilganligi ta'kidlandi.

#### Jumladan:

№	Muhokama qilinadigan masalalar
1	Vazirlik Hay'ati qarorlari va buyruqlari hamda boshqa ko'rsatmalari
2	O'quv, o'quv-usuliy ishlarga oid
3	Ilmiy-tadqiqot ishlariga oid
4	Ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlariga oid
5	Moliya-iqtisod ishlariga oid

6	Bo'sh lavozimlarga tanlovlarni tashkil etishga oid
7	Tavsiyalar
7.1.	Professor hamda dotsent ilmiy unvonga tavsiya
7.2.	O'quv- usuliy qo'llanmalarni Vazirlik muvofiqlashtiruvchi kengashi muhokamasiga tavsiya etish
8	Fuqarolarning yozma va og'zaki murojaatlariga oid
9	Ish rejalarni tasdiqlash masalalariga oid
10	Boshqa masalalar

**Izoh:** BuxDU kengashi ish rejasiga kiritilmagan, lekin dolzarb bo'lgan masalalar rejadani tashqari muhokamaga qo'yilishi mumkin.

**Kengash raisi: O.X. Xamidov** ushbu masala bo'yicha so'zga chiquvchilar bormi?

Ushbu masala bo'yicha prorektor A.Jo'rayev, dekanlar S. Azimov, D. Yavmutov, kafedra mudirlaridan A. Hamroyev va Sh. Olimovlar o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi va ushbu masalani tasdiqlash taklifini berishdi.

Ushbu **kengash a'zolari tarkibi** va kengashning **yillik ish rejasini** tasdiqlab berishni ovozga qo'ydi

Rozilar – 74 nafar

Qarshilar – yo'q

Betaraflar - yo'q

Universitet kengashi kotibi N.G. Dilova tomonidan mavjud **fakultetlarning kengash a'zolari** tarkibi ham o'qib eshittirildi.

Ushbu masala bo'yicha rektor O.X. Xamidov, prorektorlar R.G'. Jumayev, A.T. Jo'rayevlar so'zga chiqdilar. Kengashlar tarkibi maslasiga va fakultet kengashlarini tashkillashtirish va yuqori saviyada o'tkazish masalalariga alohida e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlandi.

Shundan so'ng, har bir fakultet kengash a'zolarining tarkibini tasdiqlash ovozga qo'yildi

Rozilar – 74 nafar

Qarshilar – yo'q

Betaraflar - yo'q

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Universitet rektori O.X. Xamidovning Universitet kengashining 2022/2023 o'quv yili uchun ish rejasi va kengash a'zolarining yangi tarkibini tasdiqlash to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

1. Universitet kengashining 2022/2023 o'quv yili uchun ish rejasi va kengash a'zolarining yangi tarkibi hamda har bir fakultet kengashi a'zolari tarkibi kengash a'zolarining roziligi asosida tasdiqlansin.

2. Ushbu qaror ijrosi o'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'.Jumayev hamda kengash kotibi N.G. Dilova zimmasiga yuklatilsin.

## **II Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishi bo'yicha:**

**2.1. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 31 yilligini «Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz» shiori ostida nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'ni o'tkazish to'g'risida**

**ESHITILDI: A.A. Amonov** (Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha Birinchi prorektor) kengash a'zolariga "O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 31 yilligini «Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz» shiori ostida nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'ni o'tkazish to'g'risida" axborot berdi.



O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 31 yilligini «**Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz**» shiori ostida nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va o‘ni o‘tkazish universitet rektorining 2022 yil 24 avgustdagi 81-U sonli buyrug‘i ishlab chiqildi. Unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz bir yilligini munosib nishonlash maqsadida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi bilan hamkorlikda “**Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz**” shiori ostida tashkil etiladigan “**Mustaqillik darslari**”ni tashkil etish bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar mazmun-mohiyati joriy yilning 24-25 avgust kunlari tyutorlar uchun tashkil o‘quv-seminarida siyosiy fanlar nomzodi, professor S.S.Raupov tomonidan batafsil ma’lumt berildi. Amalga oshirilgan ishlar ommaviy axborot vositalarida keng yoritildi.

O‘zbekiston Respublikasi

O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 31 yilligi munosabati bilan universitet talaba-yoshlari o‘rtasida avgust oyi davomida quyida keltirilgan tanlovlar e‘lon qilindi va yangi o‘quv yili boshlanishi bilan tanlov g‘oliblari tantanali ravishda taqdirlanadi:

- “**Yangi O‘zbekiston yangicha dunyoqarash**” mavzusida “**Eng yaxshi insho**” tanlovi;
- “**Yangi O‘zbekiston yangicha dunyoqarash**” mavzusida “**Eng yaxshi insho**” onlayn tanlovi,
- “**Yangi O‘zbekiston betakror diyor**” mavzusida “**Eng yaxshi videorolik**” onlayn tanlovi,
- “**Eng yaxshi universitet madhiyasi**” shiori ostida madhiya matni tanlovi,
- “**Betakror jonajon yurtim jamoli**” mavzusida “**Eng yaxshi fotoalbom**” onlayn tanlovi,
- “**Men tanlagan badiiy asar**” mavzusida onlayn tanlovi,
- “**Eng yaxshi namunali tomorqachi talaba**” mavzusidagi onlayn tanlovi,
- “**Eng yaxshi tomorqachi murabbiy**” mavzusidagi onlayn tanlovi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining o‘ttiz bir yillik bayrami munosabati bilan avgust oyi davomida respublikamizda hashar oyligi e‘lon qilinganligi munosabati bilan universitet hududida har haftaning shanba kuni “**Obodonlashtirilgan universitet**” shiori ostida hashar belgilandi. Amalga oshirilgan hashar to‘g‘risida ommaviy axborot vositalarida keng ma’lumot berib borildi.

«**Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz**» degan bosh g‘oya asosida universitetda “**Universitetga qabul qilingan talabalarni tabriklash bo‘yicha “Talabalikka bag‘ishlov”** tadbirlarini o‘tkazish tartibi”, “**Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz**” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan universitetda “**Mustaqillik darsi**” bo‘yicha namunaviy o‘quv dasturi, “**Birinchi kurs maktabi**” tadbirlarini o‘tkazish bo‘yicha namunaviy dastur shakllantirildi.

**Kengash raisi: O.X. Xamidov** ushbu masala bo‘yicha so‘zga chiquvchilar bormi?

Ushbu masala bo‘yicha Kengash a‘zolaridan H. Artikova, J. Jo‘rayevlar o‘z fikr-mulohazalarini bildirishdi. Universitetda ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar qoniqarli ekanligini ta’kidlashdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor A.Amonovning O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 31 yilligini «**Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz**» shiori ostida nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va o‘ni o‘tkazish to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 31 yilligi munosabati bilan universitet talaba-yoshlari o‘rtasida avgust oyi davomida o‘tkazilgan tanlov g‘oliblari universitet rektori buyrug‘iga muvofiq taqdirlansin (mas‘ul: A.Amonov, O‘.Rashidov).

3. “**Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz**” shiori ostida “**Mustaqillik darslari**” barcha fakultetlarda yuqori saviyada o‘tkazilsin hamda fakultetlarga birlashtirilgan prorektorlar tomonidan nazoratga olinsin.

4. “**Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz**” shiori ostida “**Mustaqillik darslari**” ning o‘tkazilishi bo‘yicha ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borilsin (mas‘ul: matbuot kotibi, dekanlar, dekan o‘rinbosarlari, kafedra mudirlari, tyutorlari).

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor A.Amonov zimmasiga yuklatilsin.

---

## **2.2. Respublika oliy ta'lim muassasalari Birinchi prorektor (direktor o'rinbosarlari)lari uchun 2022-yil 13-14-oktabr kunlari «Birinchi prorektorlar hamjihatlik haraqati 1-forumi»ni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada tashkil etish to'g'risida**

**ESHITILDI:** A.A. Amonov (Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha Birinchi prorektor) kengash a'zolariga "Respublika oliy ta'lim muassasalari Birinchi prorektor (direktor o'rinbosarlari)lari uchun 2022-yil 13-14-oktabr kunlari «Birinchi prorektorlar hamjihatlik haraqati 1-forumi»ni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada tashkil etish to'g'risida" axborot berdi.

Ushbu masala bo'yicha kengash raisi O.X. Xamidov so'zga chiqib, 2022-yil 13-14-oktabr kunlari «Birinchi prorektorlar hamjihatlik haraqati 1-forumi»ning o'tkazilishi bu "Respublika oliy ta'lim muassasalari Birinchi prorektor (direktor o'rinbosarlari)lari uchun ma'suliyat kasb etishini, OTM dagi ma'naviy muhitning, yoshlar tarbiyasiga e'tiborning muhim ekanligining asosiy manbasi ekanligini ta'kidladi. Bu tadbirga alohida tayyorgarlik ko'rish lozimligi bo'yicha tegishli chora-tadbirlar belgilash zarurligini aytib o'tdi.

Kengash a'zolaridan ushbu tadbir masalasida taklif va mulohazalar bo'lsa, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha Birinchi prorektor A. Amonovga murojaat qilishlarini bildirdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor A.Amonovning "Respublika oliy ta'lim muassasalari Birinchi prorektor (direktor o'rinbosarlari)lari uchun 2022-yil 13-14-oktabr kunlari «Birinchi prorektorlar hamjihatlik haraqati 1-forumi»ni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada tashkil etish to'g'risida"ni axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Barcha fakultet dekan o'rinbosarlarining «Birinchi prorektorlar hamjihatlik haraqati 1-forumi»ni sifatli o'tkazishga oid takliflari universitet ma'naiyat bo'limiga yetkazilsin
3. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor A.Amonov zimmasiga yuklatilsin.

---

## **2.3. 2022-2023 o'quv yili davomida Buxoro davlat universitetida amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasini tasdiqlash to'g'risida**

**ESHITILDI:** A.A. Amonov (Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha Birinchi prorektor) kengash a'zolariga 2022/2023 o'quv yili davomida Buxoro davlat universitetida amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar uchun yillik ish rejasini tasdiqlash to'g'risida axborot berdi.

2022/2023 o'quv yili davomida Buxoro davlat universitetida amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar uchun yillik ish reja Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Buxoro viloyati bo'limi bilan hamkorlikda shakllantirildi. Mazkur reja 9 ta yo'nalish, 68 ta banddan iboratdir.

### **MA'NAVYIY-MA'RIFIY ISHLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI:**

1. Masofaviy tarbiya tizimi asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga doir tashkiliy ishlar - 18 ta band.
2. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun va mohiyatini talabalar va professor-o'qituvchilarning keng qatlamlariga yetkazishga qaratilgan targ'ibot tadbirlari – 13 ta band.

3. O‘zbekiston respublikasi prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 tashabbusni keng joriy etishga qaratilgan tadbirlar – 10 ta band.

4. Talabalarda mutaxassislik madaniyati, kasb odobi va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish bo‘yicha malaka-ko‘nikmalarni rivojlantirish yo‘nalishida amalga oshiriladigan ishlar – 3 ta band.

5. Dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini yoritish, turli tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borishga doir ishlar – 5 ta band.

6. Yoshlarda sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish, ularda axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar – 1 ta band.

7. Talabalar ota-onalari, davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan tadbirlar – 4 ta band.

8. Yoshlar o‘rtasida xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlar va milliy tarbiya an‘analarini asrab-avaylash hamda dinlararo bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik va o‘zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlashga doir amalga oshiriladigan ishlar – 6 ta band.

9. Talabalarni ijtimoiy himoya qilish, ularni moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish yo‘nalishida amalga oshiriladigan ishlar – 11 ta band.

Univeristet ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar rejasi asosida quyidagi asosiy yo‘nalishlarga alohida e‘tibor qaratildi:

O‘zbekiston Respublikasining Yoshlarga oid siyosat qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ma‘naviy-ma‘rifiy sohaga doir farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Vazirlik hay‘ati qarorlari, buyruqlarida berilgan vazifalarning ta‘lim muassasasida, fakultetlar, kafedralar va tegishli bo‘limlarda to‘laqonli bajarilishini tashkil etish;

“2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da 2022-yilga mo‘ljallangan yoshlar masalalari hamda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarga daxldor vazifalardan kelib chiqib, universitetda uning ijrosini ta‘minlash;

**“YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI BIRLASHAYLIK!”** g‘oyasi ostida besh tashabbus olimpiadalari va yoshlar oyligi tadbirlarini amalga oshirib borish

Talaba-yoshlarda Vatanga sadoqat, mardlik va jasurlik fazilatlarini mustahkamlash maqsadida hududda joylashgan harbiy qismlar bilan ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishda **“Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”** mavzusida ma‘rifiy ishlarni amalga oshirish;

Universitet pedagog-xodimlari hamda talabalari o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish maqsadida har haftaning **SESHANBA kuni “Salomatlik uchun 5000 qadam”** shiori ostida universitet hududida yurish marafonini tashkil etish;

Har haftaning **dushanba-payshanba** kunlari Talabalar turar joyida **“Kafedra kunlari”** tadbirlarini amalga oshirish;

Universitetda tahsil oluvchi ijodkor talabalarining ijodiy ko‘rgazmalarini keng ommaga yetkazish maqsadida har haftaning **SESHANBA kuni** universitet foyesida hamda har haftaning **CHORSHANBA kuni** Talabalar turar joyida **“IJODKOR TALABA”** loyihasini amalga oshirish;

Talaba-yoshlar o‘rtasida teatr san‘atiga bo‘lgan mehrini yanada oshirish maqsadida **“Talabalar uchun teatr kuni”** shiori ostida har oyning oxirgi **PAYSHANBA kuni** reja jadvali asosida fakultetlarda tashkil etilgan Talabalar teatr studiyalari jamoasi tomonidan sahna ko‘rinishlarini amalga oshirish;

Talaba-yoshlarning madaniy xordiq chiqarishlari uchun **har haftaning PAYSHANBA kuni “O‘zbekkino” milliy agentligi tomonidan suratga olingan badiiy filmlarning** bepul tomoshasini tashkil etish;

Universitet pejdagog-xodimlari hamda talaba-yoshlari o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish hamda ularning huquqiy savodxonligini yanada mustahkamlash maqsadida **har haftaning PAYSHANBA kuni** universitetda **“PROFILAKTIKA KUNI”** tadbirlarini amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusni amalga tatbiq etish hamda Talabalar turar joyida istiqomat qiladigan talabalarining bo‘sh vaqtlarini unumli o‘tkazish maqsadida **har haftaning JUMA kuni “Besh tashabbus kuni”ni** o‘tkazish;

Talabalar bilan ishlash metodikasini keng o'rganish maqsadida **“Tyutorlar birlashib katta kuchmiz!”** g'oyasi ostida **“Besh tashabbus – imkoniyatlar kaliti”** festival, amaliy seminar-treninglar uyushtirib borish;

Talaba-yoshlarning tariximizga bo'lgan mehr-muhabbatini yanada mustahkamlash maqsadida **har haftaning JUMA kuni “Muzeylarga tashrif”** shiori ostida talabalarning tarixiy qadamjolariga tashriflarini amalga oshirish;

Talabalarning madaniy xordiq chiqarishlari uchun **har haftaning CHORSHANBA kunlari “Istirohat bog'lariga tashrif kuni”**ni tashkil etish;

**“Talaba o'zingni o'zing moliyalashtir!”** loyihasini amaliyotga joriy qilish va boshqalar. E'tiboringiz uchun rahmat! Savollar bo'lsa marhamat.

**Kengash raisi: O.X. Xamidov** ushbu masala bo'yicha so'zga chiquvchilar bormi?

Ushbu masala bo'yicha Kengash a'zolaridan H. Jo'rayev, S. Azimov, B. Ma'murovlar o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi. Universitetda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar qoniqarli ekanligini ta'kidlashdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor A.Amonovning 2022/2023 o'quv yili davomida Buxoro davlat universitetida amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar uchun yillik ish rejasini tasdiqlash to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. 2022/2023 o'quv yili davomida Buxoro davlat universitetida amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar uchun yillik ish rejasi asosida fakultet, kafedralar, tyutorlar hamda jamoat tashkilotlarining ma'naviy-ma'rifiy sohada amalga oshiriladigan rejasi ishlab chiqilsin hamda tasdiqlansin (mas'ul:dekanlar, dekan o'rinbosarlari, kafedra mudirlari, jamoat tashkilotlari rahbarlari).
3. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasida belgilangan vazifalar ijrosi doimiy ravishda nazoratga olinsin hamda ijrosi yuzasidan uniwork.buxdu.uz elektron tizimiga kiritib borilsin (mas'ul:dekanlar, dekan o'rinbosarlari, kafedra mudirlari, jamoat tashkilotlari rahbarlari).
4. Talabalarni darsdan keyingi bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida ularni fan, hunar va sport to'garaklariga keng jalb etilsin, bu borada kafedra mudirlari va tyutorlarning mas'uliyati oshirilsin (Mas'ul: dekanlar, dekan o'rinbosarlari, kafedra mudirlari, tyutorlari. Muddat: o'quv yili davomida).
5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor A.Amonov zimmasiga yuklatilsin.

---

### **III O'quv jarayoni yo'nalishi bo'yicha:**

#### **3.1. 2022/2023o'quv yiliga tayyorgarlik bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va dolzarb vazifalar to'g'risida.**

**ESHITILDI: R.G'. Jumayev** (o'quv ishlari bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga 2022/2023o'quv yiliga tayyorgarlik bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va dolzarb vazifalar to'g'risida axborot berdi.

2022/2023 o'quv yilida Buxoro davlat universitetida 11 ta fakultet tarkibida 42 ta kafedra faoliyat ko'rsatadi. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari soni 73 ta, magistratura mutaxassisliklari soni 36 tani tashkil etadi.

2022/2023 o'quv yili uchun o'qishga qabul qilish parametrlari bo'yicha Buxoro davlat universitetida 3754 nafar (659 nafar grant, 3095 nafar to'lov-kontrakt asosida) talabani o'qishga qabul qilish rejalashtirilgan.

Universitetda 23630 nafar (2021-yilda 24634 nafar), jumladan, 22762 nafari bakalavriat, 868 nafari magistratura (2021-yilda 23329 nafari bakalavriat, 1305 nafari magistratura) talaba tahsil

olib, ularning 15829 nafari (2021-yilda 16517 nafar) bakalavriat kunduzgi, 5811 nafari (2021-yilda 5040 nafar) sirtqi, 1169 nafari (2021-yilda 766 nafar) kechki, 821 nafari (2021-yilda 1006 nafar) 2-mutaxassislik, hamda 868 nafari (2021-yilda 1305 nafar) magistratura bosqichida o'qimoqda. Xorijiy talabalarning umumiy soni 19 (2021-yilda 288 nafar) nafarni tashkil etadi. (2022/2023 o'quv yilida 2-mutaxassislik qabuli kiritilmagan).

Universitetda 904 nafar (2021-yilda 872 nafar) professor-o'qituvchi, jumladan, 50 nafar (2021-yilda 48 nafar - 5,5%) fan doktorlari, professor (5,5%), 240 nafar (2021-yilda 217 nafar - 24,8%) fan nomzodi, falsafa doktori, dotsent (26,4%) va 614 nafar (2021-yilda 628 - 69,7%) o'qituvchilar (68,1%) faoliyat yuritadi. Ilmiy salohiyat 32,1 (2021-yilda 30,3%) foiz.

Universitetda 2022/2023 o'quv yili uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari kesimida kafedra professor-o'qituvchilar tarkibi shakllantirilgan. Shuningdek, Buxoro davlat universitetida Respublikamizning boshqa OTMLaridan salohiyatli, ilmiy darajaga ega professor-o'qituvchilari, yuqori iqtidorga ega bo'lgan 966 nafar magistratura mutaxassisligi bitiruvchilari ishga taklif qilindi.

Universitet kafedra mudirlari tomonidan o'quv yuklamalari professor, dosent, katta o'qituvchi hamda assistent-o'qituvchilar kesimida, ularning salohiyati hamda ko'p yillik ish tajribalarini hisobga olgan holda taqsimlandi.

Universitet kafedralarida faoliyat olib borayotgan barcha professor-o'qituvchilarining o'quv yuklamalariga asoslangan holda shaxsiy ish rejalari ishlab chiqilgan va tasdiq uchun tayyorlanmoqda.

Universitetda mavjud bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan o'quv-uslubiy materiallar tayyorlangan va ular ekspertlarning taqriz berishlari uchun taqdim qilingan. Ijobiy fikr olgan materiallar o'quv yili boshlanguniga qadar barcha fanlarning o'quv-uslubiy materiallari to'liq tayyorlangan holda universitetning barcha ta'lim platformalariga yuklatildi.

2022/2023 o'quv yilida o'qitiladigan fanlardan o'quv dasturlari tayyorlangan, kechki va sirtqi ta'lim shakllari uchun ularning ishchi dasturlari hamda o'quv-uslubiy majmualar ishlab chiqilgan.

O'quv rejalarda majburiy va tanlov fanlar muvozanatini tahlil qilindi. Talaba tomonidan muayyan o'quv rejadagi fanlarni tanlash mexanizmlarini yo'lga qo'yilgan. Mazkur jarayonni talaba o'zining shaxsiy ta'lim trayektoriyasida belgilaydi va o'quv yili boshida platformalarda tanlab o'qish uchun zarur choralar ko'rilgan. Ixtiyoriy tanlangan o'quv reja bo'yicha majburiy va tanlov fanlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil qilish texnologiyasi va tartibini universitet mutasaddi xodimlari bilan birgalikda amalda ishlab chiqildi.

2022/2023 o'quv yili o'quv jarayonining boshlanishida 1-kurs talabalari va ota-onalari uchun 1-haftalik kredit-modul tizimi bo'yicha seminar-trening o'tkazilishi belgilangan va bu tegishli o'quv rejalarda o'z ifodasini topgan. Bakalavr va magistratura dasturlari buyicha dastur katalogi (talabalarning "Yo'l xaritasi") O'quv-uslubiy boshqarma tarkibidagi Ta'limning kredit tizimini boshqarish sektori kafedralar bilan hamkorlikda ishlab chiqimoqda va uni talabalarga taqdim etadi. Dastur katalogi universitetning [www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz) web sahifasiga joylashtiriladi hamda talabalarga "Handbook" shaklida taqdim qilinishi belgilangan. Unda har bir bakalavr va magistratura o'quv dasturning maqsadlari, qabul qoidalari, BuxDUdagi o'qish sharoitlari, akademik taqvim, talabalar 4 yillik yoki 2 yillik dastur davomida aynan qaysi fanlarni o'qishlari mumkinligi, ushbu fanlarning qisqacha tavsifi, qaysi fan aynan qaysi kursda o'rganilishi, ularni aynan kimlar o'qitishi, BuxDUda talabalar uchun yotoqxonalar imkoniyatlari, talabalarning bir oylik o'rtacha yashash xarajatlari, BuxDUda qo'llaniladigan baholash usul va mezonlari haqida abituriyent va talabalarga oldindan shaffof tarzda ma'lumot berilishi inobatga olingan.

2022/2023 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 16-iyuldagi "Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 311-sonli buyrug'iga asosan mutaxassislik kafedra professor-xodimlari tomonidan kadrlar buyurtmachilarining takliflarini inobatga olgan holda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari o'quv reja va fan dasturlari tayanch OTMLardan olingan o'quv rejalari asosida, kadrlar buyurtmachilari bilan kelishilgan holda kredit-modul tizimi asosida ishlab chiqilgan hamda ta'lim jarayoniga joriy qilingan.

Kafedra fan o'qituvchilarining o'quv yuklama soatlari taqsimoti va baholash mezonlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021 yil 15-yanvardagi "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etishning tashkiliy masalalariga taalluqli hujjatlar namunalari tasdiqlash to'g'risida"gi 30-sonli buyrug'i asosida ishlab chiqilgan.

2022/2023 o'quv yilida ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonini bevosita hayot talablariga moslashtirish, mustaqil ta'limni o'quv jarayoniga tadbiq etish, talabalar bilimni baholashning reyting tizimini takomillashtirish hamda o'quv jarayonini sifatli tashkil etish universitet jamoasining asosiy vazifasi deb belgilangan.

Jumladan, ta'lim jarayoniga HEMIS, UNIWORK, MOODLE platformalarini joriy qilingan. Universitetda tahsil olayotgan barcha talabalar haqidagi ma'lumotlar HEMIS, UNIWORK platformalariga kiritish jarayonlari amalga oshirilgan. Mazkur jarayonda barcha talabalar mustaqil ravishda tizimdan ro'yxatdan o'tgan. Fakultet rahbariyati tomonidan mazkur talabalar guruhga birlashtirilgan.

Fakultet rahbariyati va xodimlarining UNIWORK tizimidan foydalanishi to'g'risidagi ma'lumotlar muntazam ravishda o'quv bo'limi xodimlari tomonidan tahlil qilib borilgan.

Universitetda yangi 2022-2023 o'quv yilida ham UNIWORK va HEMIS platformalarini o'quv jarayoniga parallel ravishda qo'llash rejalashtirilgan. Hozirda kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan o'qitiladigan fanlardan kontentlarni yaratilmoqda. Yaratilgan fan kontentlari ekspert xulosasi asosida har ikkala platformada joylashtirilishi va talabalarga taqdim etilishi rejalashtirilgan.

Universitet talabalarini kursdan-kursga o'tkazish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018 yil 9-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 19-2018-son buyruq ilovasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-sonli qaroriga muvofiq rasmiylashtirilgan.

E'tiboringiz uchun rahmat! Savollar bo'lsa marhamat.

**Kengash raisi: O.X. Xamidov** ushbu masala bo'yicha so'zga chiquvchilar bormi?

Ushbu masala bo'yicha Kengash a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. 2022/2023 o'quv yiliga tayyorgarlik bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va dolzarb vazifalar to'g'risidagi o'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'. Jumayev hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2022/2023 o'quv yiliga tayyorgarlik bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va dolzarb vazifalar to'g'risidagi o'quv ishlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar qoniqarli deb hisoblansin.

3. 2022/2023 o'quv yiliga tayyorgarlik bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va dolzarb vazifalarning natijalari yuzasidan mazkur kengash qarori barcha fakultetlar kengashlarining navbatdagi yig'ilishlarida muhokama qilinsin va ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari belgilansin. (mas'ullar: fakultet dekanlari; muddat: bir oy davomida).

4. Universitet professor-o'qituvchilarining 2022-yilda reja asosida malaka oshirish kurslariga qatnashishlari ta'minlansin. (mas'ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari)

5. Mazkur qarorlarning ijro nazorati o'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'. Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

---

**3.2. Universitet o'quv-metodik kengashining 2022/2023 o'quv yili uchun yillik ish rejasini tasdiqlash to'g'risida**

**ESHITILDI: R.G'. Jumayev** (o'quv ishlari bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga Universitet o'quv-metodik kengashining 2022/2023 o'quv yili uchun yillik ish rejasini haqida gapirib

o'tdi va ushbu rejani tasdiqlab berishlarini so'radi. (*o'quv-metodik kengashining 2022/2023 o'quv yili uchun yillik ish rejasi ilova qilinadi*)

**Kengash raisi: O.X. Xamidov** ushbu masala bo'yicha so'zga chiquvchilar bormi?

Ushbu masala bo'yicha barcha fakultet dekanlari Kengash a'zolaridan H. Jo'rayev, S. Azimov, B. Ma'murovlar o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. O'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'. Jumayevning Universitet o'quv-metodik kengashining 2022/2023 o'quv yili uchun yillik ish rejasini tasdiqlash to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Kengash a'zolari tavsiyasiga ko'ra Universitet o'quv-metodik kengashining 2022/2023 o'quv yili uchun yillik ish rejasi tasdiqlansin.
3. Universitet o'quv-metodik kengashining 2022/2023 o'quv yili uchun yillik ish rejasi bilan barcha fakultet kengashi a'zolari tanishtirilsin. (Muddat 1 kun)
4. Ushbu qaror ijrosi o'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'.Jumayev, fakultet dekanlari, bo'lim boshliqlari va kafedra mudirlari zimmasiga yuklatilsin

#### **IV. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar yo'nalishlari bo'yicha:**

##### **4.1. Buxoro davlat universitetida 2022-yil yil avgust holatida ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalar sohasida amalga oshirilgan ishlar va rejalashtirilgan tadbirlar to'g'risida**

**ESHITILDI: G.T. Zaripov** (IT, I va IPKTB boshlig'i) kengash a'zolariga Buxoro davlat universitetida 2022-yil yil avgust holatida ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalar sohasida amalga oshirilgan ishlar va rejalashtirilgan tadbirlar to'g'risida axborot berdi.

Buxoro davlat universitetida **11 ta fakultet** tarkibida **42 ta kafedralarda 863 nafar** professor-o'qituvchi faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan fan doktorlari, professorlar soni 56 nafarni, fan nomzodi, falsafa doktorlari (PhD), dotsentlar soni **225 nafarni** tashkil etadi. Ilmiy salohiyat 32,5 %.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutida jami 140 nafar doktorantlar tahsil olmoqda, shundan **11 nafar doktorantlar, 128 nafar tayanch doktorantlar hamda 1 nafar maqsadli** tayanch doktorantlar faoliyat olib bormoqda.

Universitet huzurida **14 ta ixtisoslik bo'yicha jami 8 ta ilmiy kengash** faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ilmiy darajalar beruvchi kengashlarda 2022-yilning avgust oyi holatida jami **44 ta doktorlik** dissertatsiyasi himoyalari o'tkazildi. Shundan **20 nafari** Buxoro davlat universiteti izlanuvchilari hisoblanadi. Shuningdek, **15 nafar** izlanuvchilarning doktorlik dissertatsiyasi himoya e'lonlari OAK saytiga chiqarilgan va himoya kunlari belgilangan, shulardan **9 nafari** universitet izlanuvchilari hisoblanadi, doktorlik dissertatsiyasi himoya e'lonlarini kutayotgan izlanuvchilar soni **34 nafar, shundan 18 nafari** universitet izlanuvchilari hisoblanadi.

2022-yil avgust oyi holatida universitetda faoliyat olib borayotgan izlanuvchilarning jami himoyalar soni **38 nafarni** tashkil etadi.

Universitetda **7 ta xalqaro, 1 ta respublika** miqyosida ilmiy-amaliy anjumanlar bo'lib o'tdi.

Universitet professor-o'qituvchilari tomonidan **154 ta monografiya** chop qilingan, **1 ta ixtiro va foydali modelga patent, 231 ta guvohnoma olingan. Jami chop etilgan maqolalar soni 1855 ta bo'lib, shundan 1344 ta xalqaro, 511 ta respublika miqyosidagi jurnallarda ilmiy maqolalar chop etilgan.**

2022-yil avgust holatida universitet professor-o'qituvchilari tomonidan umumiy summasi **2 mlrd. 076,5 mln. so'm bo'lgan 3 ta startap** loyihalari (Axborot texnologiyalari fakulteti, loyiha rahbarlari: **Ergashev Navro'z, Xazratov Fazliddin, Eshonkulov Hamza**) asosida ilmiy tadqiqot olib borilmoqda.

Kafedralarda ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarilishi yuzasidan viloyatdagi turli tashkilotlar va sanoat korxonalarini bilan **234 ta (umumiy summasi 714,2 mln. so'm)** fan va ishlab chiqarish

o'rtasidagi innovatsion korporativ hamkorlik shartnomalari imzolangan bo'lib, umumiy tushum miqdori **579,6 mln.** so'mni tashkil etadi.

Shu bilan birga universitet reyting ko'rsatkichlari bo'yicha 2022-yilda kafedralar tomonidan amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlar doirasida belgilangan topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli ijrosini ta'minlashda ayrim yo'nalishlarda qator kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda:

**Birinchidan**, universitet kafedralari kesimida doktorlik dissertatsiya himoyalari **38 ta (1 nafar fan doktori, 37 nafar falsafa doktori)** bo'lib, bu yillik rejaga nisbatan **47,5 %** ni tashkil etadi.

**Ikkinchidan**, Davlat ilmiy texnik dasturlari doirasidagi fundamental, amaliy, innovatsion loyihalar bo'yicha kafedralarda 2022-yil avgust holatida ilmiy loyihalar bajarilmagan.

**Uchinchidan**, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, xo'jalik shartnomalarning bajarilishi umumiy summasi **579.6 mln.** so'mni tashkil etadi. Bu esa belgilangan rejaning **26,6 %** ni tashkil etadi.

**To'rtinchidan**, Scopus xalqaro ma'lumotlar bazalariga kiritilgan ilmiy jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalar soni 17 tani tashkil etadi, rejaga nisbatan 6,2 % ni tashkil etadi.

**Beshinchidan**, ixtiro va foydali modellar 2022-yilda 38 ta rejalashtirilgan bo'lib, avgust holatida bor - yo'g'i bir donani tashkil etadi.

E'tiboringiz uchun rahmat! Savollar bo'lsa marhamat.

**Kengash raisi: O.X. Xamidov** ushbu masala bo'yicha so'zga chiquvchilar bormi?

Ushbu masala bo'yicha Kengash a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'i G.T. Zaripovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Doktorant va mustaqil izlanuvchilarga dissertatsiya himoyalarni o'z vaqtida amalga oshirish bo'yicha ilmiy rahbar va kafedra mudirlarining mas'uliyati oshirilsin. Doktorant va mustaqil izlanuvchilarga zarur shart-sharoitlar yaratish choralari ko'rilsin. (IT, I va IPKTB boshlig'i G.T. Zaripov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari)

3. Universitetda faoliyat ko'rsatayotgan ilmiy kengashlar normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq, tegishli ilmiy-tashkiliy ishlarni talab darajasida amalga oshirishi hamda oyiga kamida 2 ta dissertatsiya himoyasini o'tkazishlari uchun barcha zarur sharoitlar yaratib berilsin. (IT, I va IPKTB boshlig'i G.T. Zaripov, Kengashlar raislari)

4. Barcha kafedralarda 2022-yil 8 oyi davomida davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi fundamental, amaliy, innovatsion loyihalar asosida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari mavjud emasligi qayd etilsin.

5. Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan e'lon qilingan tanlovlarda barcha professor-o'qituvchilar va tadqiqotchilarning ilmiy loyihalar bilan faol ishtirok etishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilsin. (Mas'ullar: IT, I va IPKTB boshlig'i G.T. Zaripov, Ilmiy innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi boshlig'i O.O. Sayfulloyev, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari muddat: 2022-yil 1- sentabrga qadar.)

6. Professor-o'qituvchilar va tadqiqotchilar uchun "Scopus", "Web of Science" va boshqa xalqaro nufuzli ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalarida indekslanuvchi nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqola nashr etishga alohida e'tibor qaratilsin. (IT, I va IPKTB boshlig'i G.T. Zaripov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari)

7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor A.T. Jurayev zimmasiga yuklatilsin.

---

**4.2. Universitet ilmiy - texnik kengashining 2022/2023 o'quv yili uchun yillik ish rejasini tasdiqlash.**



**ESHITILDI: G.T. Zaripov** (IT, I va IPKTB boshlig'i) kengash a'zolariga Universitet ilmiy - texnik kengashining 2022/2023 o'quv yili uchun yillik ish rejasi haqida gapirib o'tdi va ushbu rejani tasdiqlab berishlarini so'radi. (*o'quv-metodik kengashining 2022/2023 o'quv yili uchun yillik ish rejasi ilova qilinadi*)

**Kengash raisi: O.X. Xamidov** ushbu masala bo'yicha so'zga chiquvchilar bormi?

Ushbu masala bo'yicha Kengash a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'i G.T. Zaripovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Kengash a'zolari tavsiyasiga ko'ra Universitet ilmiy - texnik kengashining 2022/2023 o'quv yili uchun yillik ish rejasi tasdiqlansin.
3. Universitet ilmiy - texnik kengashining 2022/2023 o'quv yili uchun yillik ish rejasi bilan barcha fakultet kengashi a'zolari tanishtirilsin. (Muddat 1 kun)
4. Ushbu qaror ijrosi Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'i G.T. Zaripov, fakultet dekanlari, bo'lim boshliqlari va kafedra mudirlari zimmasiga yuklatilsin

---

#### **V. Xalqaro hamkorlik bo'yicha:**

##### **5.1. Xalqaro hamkorlik hamda Xorijiy OTMLar bilan hamkorlik ishlarining tashkil etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va vazifalar to'g'risida**

**ESHITILDI: A.T. Jurayev** (Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga Xalqaro hamkorlik hamda Xorijiy OTMLar bilan hamkorlik ishlarining tashkil etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va vazifalar to'g'risida axborot berdi. (Ma'lumotnoma ilova qilinadi)

**Kengash raisi: O.X. Xamidov** ushbu masala bo'yicha so'zga chiquvchilar bormi?

Ushbu masala bo'yicha Kengash a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi. 2021-2022 o'quv yili davomida Xalqaro hamkorlik hamda Xorijiy OTMLar bilan hamkorlik ishlarining tashkil etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar qoniqarli ekanligini ta'kidlashdi.

Kengash raisi: **O.X. Xamidov** 2021-2022 o'quv yili davomida Xorijiy OTMLar bilan olib borilgan hamkorlik ishlari o'z samaradorligi bilan ajralib turganligini, ushbu natijalar bo'yicha universitetning ta'lim tizimida bir qancha yangi yo'nalishlar ochilganligini, kafedra professor – o'qituvchilaridan xorijiy tajribalar asosida o'z kasbiy mahorati va darajasini yanada oshirishi lozimligini alohida ta'kidlab o'tdi. Shu bilan birga yangi 2022-2023 o'quv yilida ushbu yo'nalishdagi amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalarning sifatini oshirish topshirig'ini berdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor A.T. Jurayevning "Xalqaro hamkorlik hamda Xorijiy OTMLar bilan hamkorlik ishlarining tashkil etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va vazifalar to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
  2. Universitetda Xalqaro hamkorlik hamda Xorijiy OTMLar bilan hamkorlik ishlarining tashkil etish bo'yicha amalga oshirilgan qoniqarli deb topilsin.
  3. 2022-2023 o'quv yilida Xalqaro hamkorlik hamda Xorijiy OTMLar bilan hamkorlik b'uyicha amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalar sifatini oshirishga oid chora tadbirlar ishlab chiqilsin. Ma'sullar: Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, bo'lim boshliqlari dekanlar, kafedra mudirlari (Muddat 10 kun)
  4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor A.T. Jurayev zimmasiga yuklatilsin.
-

## 5.2 2022-2023 o'quv yilida ta'lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda Xorijiy fuqaroligi bo'lgan talabalarni to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini belgilash to'g'risida

**ESHITILDI: A.T. Jurayev** (Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga 2022-2023 o'quv yilida ta'lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda Xorijiy fuqaroligi bo'lgan talabalarni to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini belgilash to'g'risida axborot berdi.

Xabarlarinigiz bor O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-61-sonli qarorining 2 bandiga asosan Moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta'lim muassasalariga 2022-yil 1-yanvardan boshlab quyidagi masalalar bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolati berilgan:

ta'lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini belgilash;

talabalarining to'lov-kontrakt mablag'larini to'lash muddatlarini belgilash va uzaytirish.

Shu bilan birga Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 6-sentyabrda 4/10-2/12-3 xati talabini bajarish maqsadida shuningdek bugungi kunda ta'lim xizmatlari bozorida Buxoro davlat universitetining o'rni yuqoriligi, shuningdek, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining hozirgi zamon talablariga javob beradigan keng qamrovli yo'nalishlari mavjudligini inobatga olgan holda 2022-2023 o'quv yil uchun Buxoro davlat universitetida ta'lim oladigan **Xorijiy fuqaroligi bo'lgan talabalarni** uchun to'lov-kontrakt miqdorlarini tegishli yo'nalishlar bo'yicha davlat oliy ta'lim muassasalarida belgilangan to'lov-kontrakt qiymatining **1,3 baravari** miqdorida belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi.

–Ushbu masala bo'yicha axborot tugadi. Marhamat, axborot bo'yicha qanday savol va takliflar bor?

Ushbu masala yuzasidan kengash a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirib, ta'lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda **Xorijiy fuqaroligi bo'lgan talabalarni** to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini tasdiqlashni taklif etishdi.

– Buxoro davlat universitetining 2022-2023 o'quv yilida ta'lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda **Xorijiy fuqaroligi bo'lgan talabalarni** to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatlarini belgilash to'g'risidagi taklifni ovozga qo'yaman.

Rozilar – 74 nafar

Qarshilar – yo'q

Betaraflar – yo'q

Yuqoridagilarni inobatga olib, **Kengash qaror qiladi:**

1. Buxoro davlat universiteti Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor A.T. Jurayevning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2.1 2022-2023 o'quv yil uchun Buxoro davlat universitetida ta'lim oladigan **Xorijiy fuqaroligi bo'lgan talabalarni** uchun to'lov-kontrakt miqdorlari tegishli yo'nalishlar bo'yicha davlat oliy ta'lim muassasalarida belgilangan to'lov-kontrakt qiymatining **1,3 baravari** miqdorida belgilansin.

3. Ushbu qaror ijrosini nazorat etish Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor A.T. Jurayev zimmasiga yuklansin.

---

## **VI. TSNQB bo'yicha:**

**6.1. Universitet professor-o'qituvchilarining 2021-2022 o'quv yilidagi faoliyati samaradorligini o'rganish natijalari to'g'risida**

**ESHITILDI: Z. Nurov** (TSNQB boshlig'i) kengash a'zolariga Universitet professor-o'qituvchilarining 2021-2022 o'quv yilidagi faoliyati samaradorligini o'rganish natijalari to'g'risida axborot berdi.

Buxoro davlat universitetida 2021/2022 o'quv yilida jami 791 nafar professor-o'qituvchi asosiy shtatda pedagogik faoliyatini olib bordi.

Asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar faoliyati samaradorligi 110 ballik baholash tizimi bo'yicha quyidagicha:

Hissa kesimida	80 va undan yuqori	70-80 ball	50-70 ball	50 balldan past	Jami
1 hissa	109	234	333	56	732
0,75 hissa		2	8	6	16
0,5 hissa		2	16	19	37
0,25 hissa				6	6
<b>Jami:</b>	<b>109</b>	<b>238</b>	<b>357</b>	<b>87</b>	<b>791</b>

### Kafedra mudirlari faoliyati

**18 nafar kafedra mudiri faoliyatini alohida ta'kidlash lozim.**

- Pedagogika kafedrasini mudiri Olimov Shirinboy Sharofovich (**109 ball**)
  - Iqtisodiyot kafedrasini mudiri Abdullayev Asliddin Junaydulloyevich (**107 ball**)
  - Amaliy matematika va axborot texnologiyalari kafedrasini mudiri Jalolov Ozodjon Isomiddinovich (**105 ball**)
  - Tarjimashunoslik va lingvodidaktika kafedrasini mudiri Qosimova Nafisa Farhodovna (**98 ball**)
  - Ingliz Adabiyotshunosligi kafedrasini mudiri Fayzullayev Otabek Muxammadovich (**94 ball**)
  - Differentsial tenglamalar kafedrasini mudiri Durdiyev Umidjon Durdimuratovich (**93 ball**)
  - Tabiiy yo'nalishlarda chet tili kafedrasini mudiri Xodjayeva Dilafro'z Izatilloevna (**93 ball**)
  - Psixologiya kafedrasini mudiri Nazarov Akmal Mardonovich (**92 ball**)
  - Tasviriy sanat va muhandislik kafedrasini mudiri Mamatov Dilshod Kodirovich (**91 ball**)
  - Ekologiya va geografiya kafedrasini mudiri Xolov Yoqub Davronovich (**90 ball**)
  - Boshlang'ich talim metodikasi kafedrasini mudiri Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich (**88 ball**)
  - Gumanitar yo'nalishlarda chet tili kafedrasini mudiri Xikmatova Muqadas Nurilloevna (**86 ball**)
  - Organik va fizkolloid kimyo kafedrasini mudiri Tursunov Murod Amonovich (**86 ball**)
  - Milliy g'oya, manaviyat asoslari kafedrasini mudiri Muzaffarov Firuz Davronovich (**84 ball**)
  - Axborot texnologiyalari kafedrasini mudiri Shafiyev Tursun Rustamovich (**83 ball**)
  - Fakultetlararo jismoniy madaniyat kafedrasini mudiri Sattorov Anvar Ergashovich (**81 ball**)
  - Fizika kafedrasini mudiri Fayziyev Shaxobiddin Shavkatovich (**81 ball**)
  - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri Eshonqulov Xusniddin Primovich (**80 ball**)
- to'plashga muvofiq bo'lganlar.**

**13 nafar kafedra mudirlarining faoliyati 50 balldan 79 ballgacha baholangan.**

### Kafedra mudirlarining ko'rsatkichlari

№	Familiyasi, ismi, sharifi	Ilmiy darajasi va ilmiy unvoni	Hissa	To'plagan ball
1	Olimov Shirinbay Sharofovich	Pedagogika kafedrasini mudiri, p.f.d., prof.	1	109
2	Abdulloyev Asliddin Junaydulloyevich	Iqtisodiyot kafedrasini mudiri, i.f.f.d. (PhD)	1	107
3	Jalolov Ozodjon Isomiddinovich	Amaliy matematika va axborot texnologiyalari kafedrasini mudiri, f-m.f. n., dots.	1	105
4	Qosimova Nafisa Farhodovna	Tarjimashunoslik va lingvodidaktika kafedrasini mudiri,	1	98

		f.f.f.d. (PhD)		
5	Fayzulloyev Otabek Muhammadovich	Ingliz adabiyotshunosligi kafedrası mudiri, f.f.f.d. (PhD)	1	94
6	Durdiyev Umidjon Durdimurotovich	Differensial tenglamalar kafedrası mudiri, f.f.n.	1	93
7	Xodjayeva Dilafruz Izzatullayevna	Tabiiy yo'nalishlarda chet tili kafedrası mudiri, f.f.f.d. (PhD)	1	93
8	Nazarov Akmal Mardonovich	Psixologiya kafedrası mudiri, p.f.d., prof.	1	92
9	Mamatov Dilshod Kodirovich	Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası mudiri, dots.	1	91
10	Xolov Yoqub Davronovich	Ekologiya va geografiya kafedrası mudiri (PhD), katta o'qituvchi	1	90
11	Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich	Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası mudiri, p.f.d., dots.	1	88
12	Tursunov Murod Amonovich	Organik va fizkolloid kimyo kafedrası mudiri	1	86
13	Xikmatova Muqadas Nurilloevna	Gumanitar yo'nalishlarda chet tili kafedrası mudiri, f.f.n., dotsent	1	86
14	Muzaffarov Firuz Davronovich	Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası mudiri, f.f.f.d. (PhD)	1	84
15	Shafiyev Tursun Rustamovich	Axborot texnologiyalari kafedrası mudiri	1	83
16	Fayziyev Shaxobiddin Shavkatovich	Fizika kafedrası mudiri, f-m.f.f.d., (PhD)	1	81
17	Sattorov Anvar Ergashovich	Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport, p.f.f.d. (PhD)	1	81
18	Eshonqulov Husniddin Primovich	O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, f.f.d., dotsent	1	80
19	Temirov Farrux Umedovich	Buxoro tarixi kafedrası mudiri, t.f.f.d. (PhD)	1	79
20	Shukurov Raxim Salimovich	Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrası mudiri, professor	1	77
21	Murtazoyev Azizbek Nusrat o'g'li	Texnologik ta'lim kafedrası mudiri	1	77
22	Nazarova Sevara Mustaqimovna	Tuproqshunoslik kafedrası mudiri	1	75
23	Rasulov Zubaydullo Izomovich	Ingliz tilshunosligi kafedrası mudiri, f.f.n., dotsent	1	74
24	Nazarov Sayfullo Ibdulloevich	Umumiy va noorganik kimyo kafedrası mudiri t.f.n., dotsent	1	74
25	Ibragimov Nutfillo Salimovich	Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası mudiri	1	73
26	Rashidov Oybek Rasulovich	Jahon tarixi kafedrası mudiri, t.f.f.d., dotsent	1	73
27	Rajabov To'xtasin Ibodovich	Musiqa ta'limi kafedrası mudiri	1	70
28	Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich	Maktabgacha ta'lim kafedrası mudiri, p.f.n.	1	69
29	Dilmurodov Elyor Baxtiyorovich	Matematik analiz kafedrası mudiri	1	68
30	Namozov Bobir Baxriyevich	Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrası mudiri, f.f.n.,	1	55,5

		dotsent		
31	Ro'ziyeva Mohichehra Yoqubovna	Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasini mudiri, f.f.f.d. (PhD)	1	51

**Mazkur o'quv yilida 80 balldan yuqori natijani ko'rsatgan PO'lar soni 109 nafarga yetdi. Bu ko'rsatgich o'tgan o'quv yilida 33 nafarni tashkil qilgan.**

**ҚУЙИДАГИ ПЎларнинг ФАОЛИЯТИ САМАРАДОРЛИГИ ЭЪТИБОРГА ЛОЙИҚ**

№	F.I.SH.	Lavozimi	Asosiy yoki o'rindosh	Hissa	Natija (ball)
1	Olimov Shirinbay Sharofovich	Pedagogika kafedrasini mudiri	Asosiy	1	109
2	Abdulloyev Asliddin Junaydulloyevich	Iqtisodiyot kafedrasini mudiri	Asosiy	1	107
3	Jalolov Ozodjon Isomiddinovich	Amaliy matematika va dasturlash kafedrasini mudiri	Asosiy	1	105
4	Olimov Laziz Yarashovich	Psixologiya kafedrasini dotsenti	Asosiy	1	101
5	Toirova Guli Ibragimovna	O'zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti	Asosiy	1	99
6	Qosimova Nafisa Farhodovna	Tarjimashunoslik va lingvodidaktika kafedra mudiri	Asosiy	1	98
7	Jumayev Jo'ra XXX	Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasini dotsenti	Asosiy	1	96
8	Umarova Umida Umarovna	Matematik analiz kafedra katta o'qituvchisi	Asosiy	1	95
9	Norboyeva Umida Toshtemirovna	Ekologiya va geografiya kafedrasini professor vazifasini bajaruvchi	Asosiy	1	94
10	Fayzullayev Otabek Muxammadovich	Ingliz adabiyotshunosligi kafedra mudiri	Asosiy	1	94
11	Durdiyev Umidjon Durdimuratovich	Differensial tenglamalar kafedrasini mudiri	Asosiy	1	93
12	Xodjayeva Dilafro'z Izzatullayevna	Tabiiy yo'nalishlarda chet tili kafedra mudiri	Asosiy	1	93
13	Mamatova Nilufar Husenovna	Differensial tenglamalar kafedrasini dotsent vazifasini bajaruvchi	Asosiy	1	92
14	Quvvatova Dilrabo Habibovna	O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori	Asosiy	1	92
15	Nazarov Akmal Mardonovich	Psixologiya kafedrasini mudiri	Asosiy	1	92
16	Bo'ronova Gulnora Yodgorovna	Axborot texnologiyalari kafedrasini assistenti	Asosiy	1	91
17	Hakimova Nargiza Supxonovna	Maktabgacha ta'lim kafedrasini assistenti	Asosiy	1	91
18	Ahmedova Shoira Nematovna	O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori	Asosiy	1	91
19	Nurutdinova Feruza Muidinovna	Organik va fizkolloid kimyo kafedrasini katta o'qituvchisi	Asosiy	1	91
20	Jurayev Bobomurod	Pedagogika kafedrasini assistenti	Asosiy	1	91

	Tojiyevich				
21	Mamatov Dilshod Kodirovich	Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedra mudiri	Asosiy	1	91

### PAST NATIJA QAYD ETILGAN PROFESSOR-O'QITUVCHILAR

Universitet bo'yicha 50 balldan past natija ko'rsatgan 87 nafar pedagog-xodimlarning 41 nafari to'liq stavkada faoliyat yuritmasligi yoki asosli sabablarga ko'ra ma'lum muddat turli xildagi ta'tillarda ekanligi yoki o'quv yili boshlangandan keyingi davrlarda ishga qabul qilinganligi sababli xodimlar bo'limi ma'lumotlari asosida salbiy natija qayd etgan deb hisoblanmaydi. Qolgan 46 nafar professor-o'qituvchilar faoliyati salbiy baholanmoqda.

Faoliyati salbiy baholanayotganlardan 13 nafari ilmiy daraja va (yoki) ilmiy unvonga ega, 4 nafari ilmiy darajasiz katta o'qituvchilar va 29 nafari assistent o'qituvchilardir.

1	JAMILOVA BASHORAT SATTOROVNA	Boshlang'ich ta'lim nazariyasi	40
2	RIZAYEV BAXTIYOR NAZARBOYEVICH	Jahon tarixi	48
3	NAFETDINOV SHAVKATULLO SHUKUROVICH	Tuproqshunoslik kafedrasida	46
4	RO'ZIYEV SOBIRJON SAMATOVICH	Turizm va mehmonxona xo'jaligi	46
5	KADIROV RASHID XAMIDOVICH	Jismoniy madaniyat nazariyasi	45
6	BOBOKALONOV ODILSHOH OSTONOVICH	Nemis va fransuz tillari	44
7	KLICHEV OYBEK ABDURASULOVICH	Buxoro tarixi	43
8	XODJIYEV SAFAR XXX	Matematik analiz	39,5
9	ASTANOVA GULNORA AMINOVNA	O'zbek tilshunosligi	37
10	JUMAYEV QORYOG'DI JO'RAYEVICH	Tasviriy san'at va muhandislik	33
11	MAXMUDOV MELS XASANOVICH	Boshlang'ich ta'lim nazariyasi	20
12	LATIPOV HAYOT RAMAZONOVICH	O'zbek tili va adabiyoti	18
13	PARDAYEV SHAMEDIN XXX	Biologiya kafedrasida	9
1	YADGAROVA LOLA JALOLOVNA	Axborot texnologiyalari	48
2	NOSIROV OTABEK TIMUROVICH	Rus tili va adabiyoti	48
3	AKRAMOVA MATLUBA TULKINOVNA	Maktabgacha ta'lim	29
4	ZUBOV IGOR NIKOLAYEVICH	Rus tili va adabiyoti	21
1.	KURBANOVA GULZODA YUNUSOVNA	Boshlang'ich ta'lim nazariyasi	48
2.	GAFUROV NODIR MUXITDINOVICH	Fakultetlararo jismoniy madaniyat	47

3.	SAFAROVA MAFTUNA ZOIR QIZI	O`zbek tilshunosligi	47
4.	SAPAROVA MOHIGUL RAMAZONOVNA	Ingliz tilshunosligi	46,5
5.	IBRAGIMOV MANUCHEHR BAXTIYOROVICH	Fakultetlararo jismoniy madaniyat	45
6.	AXMEDOVA DILSORA MUXSINOVNA	Ingliz adabiyotshunosligi	45
7.	AKOBIROVA MADINA BO`RONOVNA	Texnologik ta`lim	45
8.	QURBONOV AZIZBEK ULUG`BEKOVICH	Iqtisodiyot kafedrası	44
9.	ZARIPOV SODIQ DJORAYEVICH	Jahon tarixi	44
10.	HASANOV IBROHIM IXTIYOROVICH	Differensial tenglamalar	40
11.	KASIMOV ABDULLO MUXAMEDOVICH	Differensial tenglamalar	40
12.	TAJIBOYEV MAKSUD BAXTIYOROVICH	Turizm va mehmonxona xo`jaligi	40
13.	DJURAYEV JURA RAXMONOVICH	Jismoniy madaniyat nazariyasi	34
14.	CHORAQULOVA DILNORA ZOKIRJONOVNA	Rus tili va adabiyoti	33,5
15.	TILAVOVA MAHLIYO MAHMUDOVNA	Tabiiy yo`nalishlarda chet tili	28
16.	FUZAYLOVA NIGINA XAKIMOVNA	Psixologiya kafedrası	22
17.	XAMROYEVA ROXAT UTKIROVNA	Ingliz adabiyotshunosligi	21
18.	XALILOV BAHROMJON BAHODIROVICH	Iqtisodiyot kafedrası	21
19.	XABIBULLAEVA ROZA MUHAMMADAYUBOVNA	Ingliz adabiyotshunosligi	17
20.	VOXIDOV ANVAR TILOVVICH	Rus tili va adabiyoti	16
21.	ERGASHEV NAVRUZ XAKIMOVICH	Amaliy matematika va dasturlash	14
22.	AMONOV ABDULAZIZ O`KTAM O`G`LI	Biologiya kafedrası	13
23.	TURAEV MARDONJON FARMONOVICH	Axborot texnologiyalari	12
24.	NOROV BEKTOSH NEGMUROD O`G`LI	Psixologiya kafedrası	12
25.	BOLTAYEVA DILSORA DONIYORQIZI	Islom tarixi va manbashunoslik	11
26.	RUSTAMOV BAXSHI BAROTOVICH	Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari	10
27.	JALOLOV ELBEK BAXSHILLOYEVICH	Biologiya kafedrası	8

28.	ATOYEVA MAXLIYO DJALOLITDINOVNA	Psixologiya kafedrası	5
29.	TUKHTAYEV UMIDJON SHUXRAT OGLI	Psixologiya kafedrası	4

E'tiborlaringiz uchun rahmat, savollar bo'lsa marhamat.

**Kengash raisi: O.X. Xamidov** ushbu masala bo'yicha so'zga chiquvchilar bormi?

Ushbu masala bo'yicha Kengash a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. 2021/2022 o'quv yili yakunlari bo'yicha pedagog-xodimlar faoliyati samaradorligini baholash natijalari to'g'risidagi Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i Z.S.Nurovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. BuxDU professor-o'qituvchilarining 2021/2022 o'quv yili yakunlari bo'yicha faoliyat samaradorligi qoniqarli ekanligi qayd etilsin.

3. O'quv yili yakunlariga ko'ra past ko'rsatkichlarga erishgan professor-o'qituvchilar uchun tegishli tushuntirishlar olib borish, yangi o'quv yilida samarali va natijador ishlashlari uchun kafedralar kesimida ularga "ustoz-shogird" tizimi bo'yicha tajribali professor-o'qituvchilarni birlashtirish vazifalari yuklatilsin (**mas'ul: fakultet dekanlari va kafedra mudirlari**).

4. Yuqori ko'rsatkichlarga erishgan professor-o'qituvchilar mehnatini qo'llab-quvvatlash, targ'ib qilish maqsadida ularni quyidagi tartibda moddiy rag'batlantirish tashkil etilsin (mas'ullar: o'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'. Jumayev, moliya va iqtisodiyot ishlari bo'yicha prorektor O'.Rashidov):

- 110 ballik baholash tizimida taqdim qilingan ro'yxatning eng yuqori ball to'plagan 1-5 o'rinlardagi 5 nafar PO'lar bir oylik ish xaqi miqdorida;
- 6-10- o'rinlardagi 5 nafar PO'lar bir oylik ish xaqining 50 foizi miqdorida;
- 11-20- o'rinlardagi 10 nafar PO'lar bir oylik ish xaqining 25 foizi miqdorida rag'batlantirilsin. (**Izoh:** 21-o'rindagi ko'rsatkich 20-o'rindagi bilan bir xil bo'lganligi sababli rag'batlantirishga sabab bo'ladi)

*Shuningdek, eng yaxshi natijalarni ko'rsatgan mazkur 21 nafar PO'lar bilan tuzilgan bir yillik mehnat shartnomalarini keyingi davrlar uchun imtiyozli ravishda uzaytirish Maxsus komissiya tomonidan inobatga olinsin.*

5. Faoliyat samaradorligi past bo'lgan professor-o'qituvchilarga universitet ichki tartib qoidalari va jamoa shartnomasida belgilangan tartibda intizomiy choralarni qo'llash bo'yicha taklif berilsin (**mas'ullar: katta yuriskonsult G.S. Najmiddinov, o'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'. Jumayev, xodimlar bo'limi boshlig'i U. Fayziyeva**).

6. Har bir pedagog-xodim tomonidan o'quv yili davomida amalga oshirilgan o'quv-metodik, tarbiyaviy, ilmiy faoliyatlari to'g'risidagi ishlarni asoslovchi hujjatlarni universitetning portfolio (**uniwork.buxdu.uz**) tizimiga muntazam ravishda joylashtirib borishi ta'minlansin (**Mas'ullar: kafedra mudirlari**).

## 6.2. Universitet TSNQBning 2022/2023 o'quv yili uchun yillik ish rejasini tasdiqlash.

**ESHITILDI: Z. Nurov** (TSNQB boshlig'i) kengash a'zolariga Universitet TSNQBning 2022/2023 o'quv yili uchun yillik ish rejasini haqida axborot berdi va ushbu rejani tasdiqlab berishlarini so'radi. (Reja ilova qilinadi)

E'tiborlaringiz uchun rahmat, savollar bo'lsa marhamat.

**Kengash raisi: O.X. Xamidov** ushbu masala bo'yicha so'zga chiquvchilar bormi?

Ushbu masala bo'yicha Kengash a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi.



## Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. TSNQB boshlig'i Z. Nurovning Universitet TSNQBning 2022/2023 o'quv yili uchun yillik ish rejasini tasdiqlash to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Kengash a'zolari tavsiyasiga ko'ra Universitet TSNQBning 2022/2023 o'quv yili uchun yillik ish rejasi tasdiqlansin.
3. Universitet TSNQBning 2022/2023 o'quv yili uchun yillik ish rejasi bilan barcha bo'lim boshliqlari, fakultet kengashi a'zolari tanishtirilsin. (Muddat 1 kun)
4. Ushbu qaror ijrosi prorektorlar, TSNQB boshlig'i Z. Nurov, fakultet dekanlari, bo'lim boshliqlari va kafedra mudirlari zimmasiga yuklatilsin

---

## **VII. Turli masalalar.**

### **7.1. Ta'lim yo'nalishlarining va mutaxassisliklarning o'quv jarayoni jadvali, ishchi o'quv rejalar, tanlov fan dasturlari va professor-o'qituvchilarning shaxsiy ish rejalarini tasdiqlash hamda ilmiy darajasi bo'lmagan o'qituvchilarga ma'ruza soatlarini ajratish to'g'risida**

**ESHITILDI: R.G'. Jumayev** (o'quv ishlari bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga Ta'lim yo'nalishlarining va mutaxassisliklarning o'quv jarayoni jadvali, ishchi o'quv rejalar, tanlov fan dasturlari va professor-o'qituvchilarning shaxsiy ish rejalarini tasdiqlash hamda ilmiy darajasi bo'lmagan o'qituvchilarga ma'ruza soatlarini ajratish to'g'risida axborot berdi.

Universitetda 2022/2023 o'quv yili uchun 73 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishlari hamda 36 ta magistratura mutaxassisliklari bo'yicha talabalar qabul qilinishini inobatga olib, barcha yo'nalish hamda mutaxassisliklari uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021 yil 19 oktyabrdagi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar" O'zbekiston Respublikasining davlat standartini tasdiqlash to'g'risidagi 35-2021-sonli buyrug'iga muvofiq tayanch oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun o'quv rejalar va 400 dan ortiq kunduzgi, shu jumladan 80 dan ortiq kechki va sirtqi ta'lim shakllari uchun fan dasturlari tayyorlangan.

2022-2023 o'quv yilida universitet 1-2 – kurs talabalari kredit-modul tizimiga o'tganligi sababli akademik qarzdor talabalarga mavjud akademik qarzlarni topshirish maqsadida yozgi semestrda o'qitish, dars jadvallari tuzilgan, belgilangan reglament asosida tashkil etilmoqda.

2022-2023 o'quv yilida ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonini bevosita hayot talablariga moslashtirish, mustaqil ta'limni o'quv jarayoniga tadbiq etish, talabalar bilimni baholashning reyting tizimini takomillashtirish hamda o'quv jarayonini sifatli tashkil etish universitet jamoasining asosiy vazifasi deb belgilangan.

Jumladan, ta'lim jarayoniga HEMIS, UNIWORK, MOODLE platformalarini joriy qilingan. Universitetda tasil olayotgan barcha talabalar haqidagi ma'lumotlar UNIWORK platformasiga kiritish jarayonlari amalga oshirilgan. Mazkur jarayonda barcha talabalar musaqil ravishda tizimdan ro'yxatdan o'tgan. Fakultet rahbariyati tomonidan mazkur talabalar guruhga birlashtirilgan.

Fakultet rahbariyati va xodimlarining UNIWORK tizimidan foydalanishi to'g'risidagi ma'lumotlar muntazam ravishda o'quv bo'limi xodimlari tomonidan tahlil qilib borilgan.

Universitetda yangi 2022-2023 o'quv yilida HEMIS va UNIWORK platformalarini o'quv jarayoniga parallel ravishda qo'llash rejalashtirilgan. Hozirda kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan o'qitiladigan fanlardan kontentlarni yaratilmoqda. Yaratilgan fan kontentlari ekspert xulosasi asosida har ikkala platformada joylashtirilishi va talabalarga taqdim etilishi rejalashtirilgan.

E'tiboringiz uchun rahmat! Savollar bo'lsa marhamat.

**Kengash raisi: O.X. Xamidov** ushbu masala bo'yicha so'zga chiquvchilar bormi?

Ushbu masala bo'yicha Kengash a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. O'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'.Jumayevning "Ta'lim yo'nalishlarining va mutaxassisliklarning o'quv jarayoni jadvali, ishchi o'quv rejalar, tanlov fan dasturlari va professor-o'qituvchilarning shaxsiy ish rejalarini tasdiqlash hamda ilmiy darajasi bo'lmagan o'qituvchilarga ma'ruza soatlarini ajratish to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ta'lim yo'nalishlarining va mutaxassisliklarning o'quv jarayoni jadvali, ishchi o'quv rejalar, tanlov fan dasturlari va professor-o'qituvchilarning shaxsiy ish rejalarini tasdiqlash hamda ilmiy darajasi bo'lmagan o'qituvchilarga ma'ruza soatlarini ajratilishi ta'minlansin (mas'ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari)

3. Mazkur qarorlarning ijro nazorati o'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'. Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

---

## **7.2. O'quv-uslubiy boshqarma to'g'risida Nizomni tasdiqlash to'g'risida.**

**ESHITILDI: R.G'. Jumayev** (o'quv ishlari bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga O'quv-uslubiy boshqarma to'g'risida Nizomni tasdiqlash to'g'risida axborot berdi.

O'quv-uslubiy boshqarma to'g'risidagi Nizom mazmuni, uning bo'limlari va maqsad vazifasi bilan kengash a'zolarini tanishtirdi va kengash a'zolaridan ushbu Nizomni tasdiqlab berishlarini so'radi. (O'quv-uslubiy boshqarma to'g'risidagi Nizom) ilova qilinadi.

**Kengash raisi: O.X. Xamidov** O'quv-uslubiy boshqarma to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida kimda qanday taklif va qo'shimchalar bor?

Ushbu masala bo'yicha Kengash a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi. O'quv-uslubiy boshqarma to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash taklifini bildirishdi.

**Kengash raisi: O.X. Xamidov** O'quv-uslubiy boshqarma to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash masalasini ovozga qo'ydi.

Rozilar – 74 nafar

Qarshilar – yo'q

Betaraflar – yo'q

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. O'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'.Jumayevning "O'quv-uslubiy boshqarma to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "O'quv-uslubiy boshqarma to'g'risidagi Nizom tasdiqlansin.

3. Ushbu Nizom bilan barcha professor - o'qituvchilar tanishtirilsin. (Muddat 3 kun)

4. Mazkur qarorlarning ijro nazorati o'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'. Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

---

## **7.3. O'zbekiston yoshlar ittifoqining Buxoro davlat universitetidagi Boshlang'ich tashkiloti yetakchilar Kengashining 2022/2023 o'quv yiliga mo'ljallangan Buxoro davlat universiteti talabalari orasida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy-tarbiyaviy ishlari va faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash to'g'risida**

**ESHITILDI: F. Karimov** (Yoshlar ittifoqi BuxDU boshlang'ich tashkiloti yetakchisi) kengash a'zolariga O'zbekiston yoshlar ittifoqining Buxoro davlat universitetidagi Boshlang'ich tashkiloti yetakchilar Kengashining 2022/2023 o'quv yiliga mo'ljallangan Buxoro davlat universiteti talabalari orasida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy-tarbiyaviy ishlari va faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash to'g'risida axborot berdi. (ma'lumotnoma ilova qilinadi)

Kengash a'zolaridan Buxoro davlat universitetidagi Boshlang'ich tashkiloti yetakchilar Kengashining 2022/2023 o'quv yiliga mo'ljallangan Buxoro davlat universiteti talabalari orasida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy-tarbiyaviy ishlari va faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlab berishlarini so'radi.

**Kengash raisi: O.X. Xamidov** Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich tashkiloti yetakchilar Kengashining 2022/2023 o'quv yiliga mo'ljallangan "Buxoro davlat universiteti talabalari orasida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy-tarbiyaviy ishlari va faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini" haqida o'z takliflarini bildirdi.

Ushbu masala bo'yicha Kengash a'zolari ham o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi. "Buxoro davlat universiteti talabalari orasida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy-tarbiyaviy ishlari va faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini"ni tasdiqlash masalasi ovozga qo'yildi.

Rozilar – 74 nafar

Qarshilar – yo'q

Betaraflar – yo'q

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Yoshlar ittifoqi BuxDU boshlang'ich tashkiloti yetakchisi F. Karimovning "Buxoro davlat universiteti talabalari orasida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy-tarbiyaviy ishlari va faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini"ni tasdiqlash to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "Buxoro davlat universiteti talabalari orasida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy-tarbiyaviy ishlari va faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini" tasdiqlansin.

3. "Buxoro davlat universiteti talabalari orasida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy-tarbiyaviy ishlari va faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini" bilan barcha professor - o'qituvchi va talabalar tanishtirilsin. (Muddat 5 kun)

4. Mazkur qarorlarning ijro nazorati Yoshlar ittifoqi BuxDU boshlang'ich tashkiloti yetakchisi F. Karimov zimmasiga yuklatilsin.

---

**7.4. Buxoro davlat universitetida o'quv semestri yakuni bo'yicha fanlarni o'zlashtirayotgan, iqtidorli, jamoat ishlarida faol bo'lgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan talabalarni moddiy rag'batlantirish tartibiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida**

**ESHITILDI: F. Karimov** (Yoshlar ittifoqi BuxDU boshlang'ich tashkiloti yetakchisi) kengash a'zolariga Buxoro davlat universitetida o'quv semestri yakuni bo'yicha fanlarni o'zlashtirayotgan, iqtidorli, jamoat ishlarida faol bo'lgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan talabalarni moddiy rag'batlantirish tartibiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida axborot berdi. Buxoro davlat universitetida o'quv semestri yakuni bo'yicha fanlarni o'zlashtirayotgan, iqtidorli, jamoat ishlarida faol bo'lgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan talabalarni moddiy rag'batlantirish tartibi bilan tanishtirdi. (ma'lumotnoma ilova qilinadi)

**Kengash raisi: O.X. Xamidov** Buxoro davlat universitetida o'quv semestri yakuni bo'yicha fanlarni o'zlashtirayotgan, iqtidorli, jamoat ishlarida faol bo'lgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan talabalarni moddiy rag'batlantirish tartibiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish bo'yicha o'z takliflarini bildirdi. Bu masala belgilangan talabalar asosida ishlab chiqilishi va ishchi guruhga tavsiya etilishini, o'rganishlar natijasi bo'yicha Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha 1- prorektor A.Amonovga asosli taqdimnoma olib kirilishini ta'kidladi. Barcha ma'sullarga ushbu topshiriq bo'yicha jiddiy ish olib borish zarurligini bildirdi.

Ushbu masala bo'yicha Kengash a'zolari ham o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

#### Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Yoshlar ittifoqi BuxDU boshlang'ich tashkiloti yetakchisi F. Karimovning "Buxoro davlat universitetida o'quv semestri yakuni bo'yicha fanlarni o'zlashtirayotgan, iqtidorli, jamoat ishlarida faol bo'lgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan talabalarni moddiy rag'batlantirish tartibiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Kengash a'zolarining tavsiyasiga "Buxoro davlat universitetida o'quv semestri yakuni bo'yicha fanlarni o'zlashtirayotgan, iqtidorli, jamoat ishlarida faol bo'lgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan talabalarni moddiy rag'batlantirish" tartibi tasdiqlansin.
3. "Buxoro davlat universitetida o'quv semestri yakuni bo'yicha fanlarni o'zlashtirayotgan, iqtidorli, jamoat ishlarida faol bo'lgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan talabalarni moddiy rag'batlantirish" tartibi bilan professor – o'qituvchilar, tyutorlar va talabalar tanishtirilsin. (Muddat 5 kun)
4. Mazkur qarorlarning ijro nazorati Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha 1-prorektor A.Amonov va Yoshlar ittifoqi BuxDU boshlang'ich tashkiloti yetakchisi F. Karimov zimmasiga yuklatilsin.

---

#### **7.5. Buxoro davlat universiteti yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotining TTJ dagi "Qalqon" guruhi Nizomini tasdiqlash to'g'risida**

**ESHITILDI: F. Karimov** (Yoshlar ittifoqi BuxDU boshlang'ich tashkiloti yetakchisi) kengash a'zolariga Buxoro davlat universiteti yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotining TTJ dagi "Qalqon" guruhi Nizomini tasdiqlash to'g'risida axborot berdi. (ma'lumotnoma ilova qilinadi)

Kengash a'zolaridan Buxoro davlat universiteti yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotining TTJ dagi "Qalqon" guruhi Nizomini tasdiqlab berishlarini so'radi.

**Kengash raisi: O.X. Xamidov** Buxoro davlat universiteti yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotining TTJ dagi "Qalqon" guruhi Nizomi haqida o'z takliflarini bildirdi.

Ushbu masala bo'yicha Kengash a'zolari ham o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi. "Buxoro davlat universiteti yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotining TTJ dagi "Qalqon" guruhi Nizomi"ni tasdiqlash masalasi ovozga qo'yildi.

Rozilar – 74 nafar

Qarshilar – yo'q

Betaraflar – yo'q

#### Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Yoshlar ittifoqi BuxDU boshlang'ich tashkiloti yetakchisi F. Karimovning "Buxoro davlat universiteti yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotining TTJ dagi "Qalqon" guruhi Nizomi"ni tasdiqlash"ni tasdiqlash to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. "Buxoro davlat universiteti yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotining TTJ dagi "Qalqon" guruhi Nizomi" tasdiqlansin.
3. "Buxoro davlat universiteti yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotining TTJ dagi "Qalqon" guruhi Nizomi" bilan barcha professor - o'qituvchi va talabalar tanishtirilsin. (Muddat 5 kun)
4. Mazkur qarorlarning ijro nazorati Yoshlar ittifoqi BuxDU boshlang'ich tashkiloti yetakchisi F. Karimov zimmasiga yuklatilsin.

---

#### **7.6. Professorlik va dotsentlik unvoniga tavsiya qilish uchun professor - o'qituvchilarning attestatsiya ishi hujjatlarini OAK ga yuborish to'g'risida**

**7.1.** Ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsenti lavozimida faoliyat yuritayotgan Raxmatova Mehriniso Musinovning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to'g'risida.

**7.2.** Fizika-matematika fakulteti dekani lavozimida faoliyat yuritayotgan Jo'rayev Husniddin Oltinboyevichning professor ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to'g'risida.

**7.3.** Agronomiya va biotexnologiya fakulteti dekani lavozimida faoliyat yuritayotgan Artikova Hafiza To'ymurodovnaning professor ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to'g'risida.

**7.4.** Jahon tarixi kafedrasida dotsenti lavozimida faoliyat yuritayotgan Xamroyev Azalshoh Hazratovichning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to'g'risida.

**ESHITILDI: N.G.Dilova** (Kengash kotibi, p.f.f.d., (Ph.D)): - Kengash a'zolariga professor va dotsent ilmiy unvoniga talabgorlar: Ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsenti lavozimida faoliyat yuritayotgan Raxmatova Mehriniso Musinovna, Fizika-matematika fakulteti dekani lavozimida faoliyat yuritayotgan Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich, Agronomiya va biotexnologiya fakulteti dekani lavozimida faoliyat yuritayotgan Artikova Hafiza To'ymurodovna, Jahon tarixi kafedrasida dotsenti lavozimida faoliyat yuritayotgan Xamroyev Azalshoh Hazratovichlarning O'zR OAKga yuborish uchun tayyorlagan hujjatlari Nizom talablariga mos kelishini hamda nomzodlarning mazkur unvonga loyqligini ta'kidlab, tavsiya beruvchi kafedra hamda fakultetlarning tegishli yig'ilish bayonlaridan va ilmiy- texnik kengashning 2022-yil 15-avgustdagi 1- kengash bayoni ko'chirmalari mavjudligini ma'lum qildi.

Shundan so'ng, kengash kotibi ilmiy unvonga talabgorlarning so'nggi yillar mobaynida nashr ettirgan ilmiy, shiuv-uslubiy ishlari natijasi haqida ma'lumot berdi.

Xulosa qilib aytganda, Ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsenti lavozimida faoliyat yuritayotgan Raxmatova Mehriniso Musinovna, Fizika-matematika fakulteti dekani lavozimida faoliyat yuritayotgan Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich, Agronomiya va biotexnologiya fakulteti dekani lavozimida faoliyat yuritayotgan Artikova Hafiza To'ymurodovna, Jahon tarixi kafedrasida dotsenti lavozimida faoliyat yuritayotgan Xamroyev Azalshoh Hazratovichlar OAKning dotsent ilmiy unvonini olish uchun qo'yilgan talablarini to'liq bajargan.

Kengash raisi O.X. Xamidov mazkur lavozimga talabgorning nomzodini tavsiya berish uchun ochiq ovoz berish taklifini kiritdi. Kengash a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab-quvvatlashdi.

Kengashda 77 nafar Kengash a'zorida 74 nafari ishtirok etdi.  
Ochiq ovoz berish natijasi quyidagicha:

**Talabgorlar:** Raxmatova Mehriniso Musinovna, Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich, Artikova Hafiza To'ymurodovna, Xamroyev Azalshoh Hazratovichlar, Aminov Akmal Shavkatovichga 74 kishi "rozi", "qarshi" va betaraflar yo'q.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, kengash **qaror qiladi:**

1. Ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsenti lavozimida faoliyat yuritayotgan Raxmatova Mehriniso Musinovna, Fizika-matematika fakulteti dekani lavozimida faoliyat yuritayotgan Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich, Agronomiya va biotexnologiya fakulteti dekani lavozimida faoliyat yuritayotgan Artikova Hafiza To'ymurodovna, Jahon tarixi kafedrasida dotsenti lavozimida faoliyat yuritayotgan Xamroyev Azalshoh Hazratovichlar tegishli ilmiy unvonlarga tavsiya etilsin.
2. Talabgorlarning hujjatlarini 10 kun muddatda O'zR OAKga yetkazish vazifasi Kengash kotibi N.G.Dilova zimmasiga yuklatilsin. (muddat: 2022-yil 14- sentabrgacha)

---

**7.7. Fan doktori (PhD), (DSc) doktorlik dissertatsiya mavzusi va ilmiy maslahatchini tasdiqlash to'g'risida.**

**1.** Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasida izlanuvchisi Turdiyeva Gavhar Saidovnaning 13.00.02-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika) ixtisosligi

bo'yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun dissertatsiya mavzusini "Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishlarini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish metodikasi" tarzida tasdiqlash va dissertatsiya ishiga ilmiy rahbar etib f.m.f.n., dotsent O.I. Jalolovni tayinlash to'g'risida.

2. Buxoro tarixi kafedrasini izlanuvchisi Umarov Baxtishod Baxriddin o'g'lining 07.00.01-O'zbekiston tarixi ixtisosligi bo'yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun dissertatsiya mavzusini "Somoniylar hukmronligi davrida Buxoro shahri" tarzida tasdiqlash va dissertatsiya ishiga ilmiy rahbar etib t.f.d., dotsent B.S. G'oyibovni tayinlash to'g'risida.

3. O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mustaqil izlanuvchisi To'rayeva Laylo Omonovnaning 10.00.08-Folklorshunoslik ixtisosligi bo'yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya mavzusini "O'zbek xalq dehqonchilik qo'shiqlarining taraqqiyot bosqichlari, Janriy tarkibi, badiiyati" mavzusini "O'zbek folklorida dehqon obrazi va dehqonchilik talqini" tarzida qayta tayinlash to'g'risida.

4. Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasini izlanuvchisi Imomova Shafolat Mahmudovnaning 13.00.02-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika) ixtisosligi bo'yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun dissertatsiya mavzusini "Matematik paket dasturlaridan foydalanib matematika o'qitish metodikasini takomillashtirish" tarzida tasdiqlash va dissertatsiya ishiga ilmiy rahbar etib f.m.f.n., dotsent O.I. Jalolovni tayinlash to'g'risida.

5. Pedagogika kafedrasini mustaqil izlanuvchisi O.R.Ortiqovning p.f.n., dotsent N.E. Azimov rahbarligidagi 13.00.01-Pedagogika nazariyasi.Pedagogi ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun dissertatsiya "Ma'naviy – ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish texnologiyalari" mavzusini takomillashtirish maqsadida dissertatsiya ishiga ilmiy rahbar etib p.f.d., professor Sh.Sh. Olimovni qayta tayinlash to'g'risida.

6. Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasini mustaqil izlanuvchisi Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovichaning 13.00.02-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) ixtisosligi bo'yicha fan doktori (DSc) darajasini olish uchun dissertatsiya mavzusini "O'zbekistonda boshlang'ich sinf darsliklarini yaratilishining metodik asoslari" tarzida tasdiqlash va dissertatsiya ishiga ilmiy maslahatchi etib p.f.d., professor A.R. Hamroyevni tayinlash to'g'risida.

---

## 7.8. Universitet ta'lim, ilmiy, tashkiliy-boshqaruv va boshqa faoliyatlariga xorijiy mutaxassis va vatandoshlarni jalb qilish, 2022-2023 o'quv yilda jalb qilinishi rejalashtirilgan professor-o'qituvchilar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida

**ESHITILDI: A.T. Jurayev** (Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor) 2021-2022 o'quv yilida jami 30 dan ortiq **xorijlik** professor-o'qituvchi ta'lim faoliyatini olib bordi. Pandemiya tufayli ularning faqatgina bir necha nafari an'anaviy shaklda dars bergan bo'lsa, aksariyati bilan onlayn shaklda dars berish bo'yicha mehnat shartnomasi imzolandi. Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi, AQShning Fulbrayt dasturi, shuningdek qo'shma ta'lim dasturlari doirasida ma'ruza o'qigan professor-o'qituvchilardan tashqari, 35 nafardan ortiq xorijlik o'qituvchilar uchun soatbay ish haqi BuxDU byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan **har bir soat uchun 10-15 dollar** atrofida belgilandi. Taklif qilingan xorijlik o'qituvchilarning barchasi jahon akademik reytinglarida **yuqori 1000 talikka kiruvchi OTMLardan** bo'lishi ta'minlandi. Ular qatorida Vatel mehmonxona va turizm biznes maktabi (Fransiya), Sasseks universiteti (Angliya), Myunster universiteti (Germaniya), Moskva davlat universiteti, Qozon federal universiteti (Rossiya) kabilarni ko'rsatib o'tish mumkin. **Jami 2 ming soatga** yaqin dars xorijlik professor-o'qituvchilar tomonidan o'tildi.

2022-2023 o'quv yilida ularning soni **60 nafarga** etkazilishi rejalashtirilgan. Shundan kelib chiqib yil oxiriga qadar KOICA markaziga ikki nafar, AQSH elchixonasi tomonidan 1 nafar, Fransiya elchixonasi tomonidan 1 nafar ko'ngilli o'qituvchilarni jalb qilish rejalashtirilgan.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib kafedralar tomonidan 29 avgustga qadar dars berishi rejalashtirilgan bir qator o'qituvchilarni jalb qilish nazarda tutilgan.

**2021-2022- o'quv yilida dars berish jarayoniga jalb qilinishi rejalashtirilgan professor-o'qituvchilar ro'yxati**

	<b><u>F.I.SH.</u></b>	Davlati	Xorijiy OTM nomi	Ilmiy darajasi	Dars berishi rejalashtirilgan fakultet va kafedrasini	Ajratilgan soat	Fan nomi	Dars berishi rejalashtirilgan vaqt	1 soat dars (akademik) uchun rejalashtirilgan ish haqqi miqdori (\$)	Xalqaro aviachipta narxi (\$) taxminiy (Borish va Kelish)	Tunash xarajatlari (\$) taxminiy	Kafedra muduri F.I.SH. Telefon raqami, Mas'ul o'qituvchi <b><u>F.I.SH.</u></b> telefon raqami
1	Diganova Yelena Aleksandrovna	Rossiya Federatsiyasi	Qozon federal universiteti (KFU)	Dotse nt	San'atshunoslik fakulteti Musiqa ta'limi kafedrasini	46 soat	"Xor va xorshunoslik" fani	26.09.2022 07.10.2022	15	1000	360	T.I. Rajabov +998905133968
2	Zakirova Venera Gilemxonovna	Rossiya Federatsiyasi	Qozon federal universiteti (KFU)	Profesor	Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti boshlang'ich ta'lim metodikasi	50 soat	Ona tili o'qitish metodikasi	10.04.2023 19.04.2023	15	1000	360	A.R.Hamroyev +998936557782
3	Mutaliyeva Lyailya	Qozog'iston	Qozog'iston Yevroosiyo milliy universiteti	Profesor	Iqtisodiyot va turizm Turizm va mehmonxona xo'jaligi	60 soat	Xalqaro turizm: nazariya va amaliyot (Rus guruhlariga)	3.04.2023 12.04.2023	15	1000	360	N.S.Ibragimov +998907181970
4	Ермеkb аев Мухтар Абенович	Qozog'iston	M.Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti	Dotse nt	Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti boshlang'ich ta'lim metodikasi	36	Ona tili o'qitish metodikasi	15.11.22- 26.11.22	15	400	360	A.R.Hamroyev +998936557782
5	Палей Татьяна Феликсовна	Rossiya Federatsiyasi	Qozon federal universiteti (KFU)	Profesor	Iqtisodiyot va turizm Iqtisodiyot	60	Menejment	10.04.2023 19.04.2023	15	1000	360	A.J. Abdulloyev +998907115309
6	Gargash Ravinder	Hindiston	Dehli universiteti	Doktor	Tarjimashunoslik va lingvodidaktika	90	o'qish va yozish	10.04.2023 19.04.2023	15	1000	360	N.F. Qosimova +998907187080
7	Narang Vaishna	Hindiston	Javohar li Neru universiteti	Doktor	Tarjimashunoslik va lingvodidaktika	90	o'qish va yozish	10.04.2023 19.04.2023	15	1000	360	N.F. Qosimova +998907187080
8	Markova Yelena	Rossiya Federatsiyasi	Oliy iqtisodiyot maktabi	Dotse nt	Tarjimashunoslik va lingvodidaktika	90	sinxron tarjima	10.04.2023 19.04.2023	15	1000	360	N.F. Qosimova +998907187080
9	Punit Gaur	Hindiston	Eurasian	Dotse nt	Huquq va ijtimoiy-	30	Geosiyosat asoslari	12.09.2022/ 01.02.2023	15	1000	360	F.D.Muzaffarov

			National university		siyosiy fanlar							+998906110105
10	Raximov Karim Hoshimovich	Singapur	Singapur Milliy universiteti	f.-m.f.d. (DSc)	Fizika-matematika fakulteti, Matematik analiz kafedrası	60	Kompleks o'zgaruvchili funksiyalar nazariyasi	05.09.2022/30.09.2022	15	-	150	E.B.Dilmurodov +998914189511
11	Maria Dolores Teruel Serrano	Ispaniya	Valensiya Politexnika universiteti	PhD	Turizm va Mehmonxona xo'jaligi	30	Xalqaro turizm. Ilmiy rahbarlik (Ingliz guruhlariga)	Mart-iyun oylari orasida 10-14 kun davomida	20	1200	300-400	N.Ibragimov +998907181970
12	Maria Jose Vinals	Ispaniya	Valensiya Politexnika universiteti	PhD, Professor	Turizm va Mehmonxona xo'jaligi	30	Xalqaro turizm. Ilmiy rahbarlik (Ingliz guruhlariga)	Mart-iyun oylari orasida 10-14 kun davomida	20	1200	300-400	N.Ibragimov +998907181970

E'tiborlaringiz uchun rahmat, savollar bo'lsa marhamat.

**Kengash raisi: O.X. Xamidov** ushbu masala bo'yicha so'zga chiquvchilar bormi?

Ushbu masala bo'yicha Kengash a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor A.T. Jurayevning ma'lumoti axborot uchun qabul qilinsin.
2. Xorijlik mutaxassis va vatandoshlarning ta'lim, ilm-fan, tashkiliy-boshqaruv jarayonlariga jalb etilishi universitetda ta'lim va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlansin.
3. Universitetga taklif etiluvchi xorijlik mutaxassis va vatandoshlarning yuqori malakali bo'lishi shartligi ta'kidlab o'tilsin. Ularga to'lanadigan ish haqi ish haqi soatbay, ishbay yoki lavozim hissasi asosida o'zaro kelishiladigan valyutada, O'zbekiston qonunchiligida belgilangan soliq va to'lovlar to'langanidan so'ng, to'g'ridan-to'g'ri naqd ko'rinishda yoki pul ko'chirish orqali mutaxassisning xorijda yoki O'zbekistonda ochilgan bank hisobraqamiga (plastik kartasiga) o'tkazib berilishiga ruxsat berilsin. Ish haqqi universitet kengashining 2021/2022 o'quv yili 7-son yig'ilish bayoni asosida hisoblansin.
4. Professor-o'qituvchining kunlik, sutkalik, ikki tomonga aviachiptalarni sotib olish xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 20.04.2017 yildagi PQ-2909-son asosida qoplansin.
5. 1-jadvalda taqdim etilgan, dars berish maqsadida taklif etilishi belgilangan professor-o'qituvchilarga dars o'tishi uchun ruxsat berilsin. Darslarni o'z vaqtida tashkil etish va olib borish vazifasi fakultet o'quv ishlari bo'yicha dekan muovinnari va kafedra mudiriga yuklansin.
6. Ushbu qaror ijrosi Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektor va Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor zimmasiga yuklansin.

---

**7.9. Buxoro davlat universitetida 2022-2023 o'quv yili uchun 1 ta talabning talabalar turar joyida bir oy istiqomat qilish miqdorini belgilash to'g'risida**



**ESHITILDI: O‘.U.Rashidov** (Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor) yshbu masala bo‘yicha so‘zga chiqib, bugungi kunda universitet yotoqxonalarida 2048 dona krovat bilan jihozlangan o‘rin mavjudligini, yotoqxonalaridagi mavjud quvvatlarni ikki yarusli krovatlarni o‘rnatish hisobiga o‘rtacha 1,4 koeffitsiyentgacha oshirib, optimallashtirish hisobiga ushbu o‘rinlar soni 2550 taga yetkazildi, ya‘ni 502 ta qo‘shimcha yotoqxonalar o‘rni paydo bo‘ldi. Yotoqxonalar mebellarini qayta jihozlash, ta‘mirlash va xarid qilish bilan bog‘liq xarajatlar uchun universitetning moliyalashtirish smetasida 6198,4 mln so‘m mablag‘ sarflangan. Talabalar turar joyini saqlab turish va joriy ta‘mirlash xarajatlari uchun 2021-2022 o‘quv yilida jami 3294 mln so‘m xarajatlar amalga oshirilganligi haqida ma‘lumot berdi.

Yuqoridagilarni inobatga olib amalga oshirilgan xarajatlar va mavjud o‘rinlar sonidan kelib chiqqan holda 2022-2023 o‘quv yilida talabalar turar joyini bir oylik to‘lov summasini 150 000 so‘m belgilash maqsadga muvofiq ekanligini bildirdi. Bundan tashqari o‘rnatilgan tartib (*Vazirlikning 2019 yil 1 noyabrdagi 1019-sonli hamda universitet rektorining 2016-yil 9-noyabrdagi 1036-sonli buyruqlari bilan tasdiqlangan TTJ to‘g‘risidagi Nizom*)da chin yetim (ota-onasi vafot etganlar), Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari, Yoshlar ittifoqining TTJdagi posbonlari va 1-2-guruh nogironligi bo‘lgan talabalar talabalar turar joyi **to‘lovidan ozod etish** masalasini hamda yetim (ota-onalaridan biri vafot etgan), TTJ talabalar kengashi raisi, qavat sardorlari, bir oiladan ikki va undan ortiq talabasi (*barchasi shartnoma asosida tahsil olgan taqdirda*) borlar, “temir daftar” ro‘yxati(sektor ma‘lumotnomasi asosida)ga olingan oila farzandi bo‘lganlar hamda 3-guruh nogironligi bo‘lgan talabalarga **to‘lovni 50% to‘lash** imkoni berish masalasini gapirib ўтди.

Ushbu masala muhokamasi bo‘yicha Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor O‘.U.Rashidov, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor A.A.Амонов va boshqalar o‘z fikr va takliflarini bildirib, 2022-2023 o‘quv yilida talabalar turar joyini bir oylik to‘lov summasini 150 000 so‘m belgilanishini qo‘llab - quvvatlashdi.

Kengash raisi 2022-2023 o‘quv yilida talabalar turar joyini bir oylik to‘lov summasini 150 000 so‘m belgilanish to‘g‘risidagi masalani ovozga qo‘ydi.

Kengash a‘zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo‘llab - quvvatladilar. Qarshilar va betaraflar yo‘q.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. Buxoro davlat universiteti 2022-2023 o‘quv yilida talabalar turar joyini oylik to‘lov summasini belgilash va uzoq hududlardan kelgan talabalarni shartnoma asosida yotoqxonaga joylashtirish haqidagi axborot ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2022-2023 o‘quv yilida talabalar turar joyini bir oylik to‘lov summasini 150 000 so‘m belgilansin.

3. O‘rnatilgan tartib(*Vazirlikning 2019 yil 1 noyabrdagi 1019-sonli hamda universitet rektorining 2016 yil 9 noyabrdagi 1036-sonli buyruqlari bilan tasdiqlangan TTJ to‘g‘risidagi Nizom*)da chin yetim (ota-onasi vafot etganlar), Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari, Yoshlar ittifoqining TTJdagi posbonlari va 1-2-guruh nogironligi bo‘lgan talabalar talabalar turar joyi **to‘lovidan ozod** qilinsin.

4. Yetim (ota-onalaridan biri vafot etgan), TTJ talabalar kengashi raisi, qavat sardorlari, bir oiladan ikki va undan ortiq talabasi (*barchasi shartnoma asosida tahsil olgan taqdirda*) borlar, “temir daftar” ro‘yxati(sektor ma‘lumotnomasi asosida)ga olingan oila farzandi bo‘lganlar hamda 3-guruh nogironligi bo‘lgan talabalarga **to‘lovni 50% to‘lash** imkoni berilsin.

5. Kengashning ushbu qarori ijrosini ta‘minlash Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor O‘.U.Rashidov zimmasiga yuklatilsin.

---

## **7.10 Qo‘shma ta‘lim dasturlari bakalavr yo‘nalishlarida grantga qabul qilish tartibini tasdiqlash**

**ESHITILDI: O.H. Raximov** (Qo‘shma ta‘lim dasturlarini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i) kengash a‘zolariga “Qo‘shma ta‘lim dasturlari bakalavr yo‘nalishlarida grantga qabul qilish tartibini tasdiqlash” to‘g‘risidagi masala haqida axborot berdi

Buxoro davlat universiteti qo'shma ta'lim dasturlariga 2022/2023 o'quv yilida sifatli abituriyentlarni jalb qilish maqsadida har bir bakalvriyat qo'shma ta'lim dasturlari uchun 2 nafar abituriyentga grant o'rinlari ajratish bo'yicha taklifimni qabul qilishingizni so'rayman.

Grant o'rinlariga abituriyentlarni sararlashda quyidagi parametrlar asosida amalga oshirilishi taklifini tasdiqlashingiz lozim:

1. Grant o'rinlari faqat **bakalvriyat** qo'shma ta'lim dasturlariga har bir dastur uchun 2 tadan beriladi.

2. Qo'shma ta'lim dasturlariga Grant asosida o'qishga qabul qilingan talabalarga **stipendiya** berilmaydi. Dasturning **BuxDUda** belgilangan qismi uchun kontrakt to'lovidan ozod qilinadi.

3. Qo'shma ta'lim dasturlariga o'qishning xorijiy hamkor OTM uchun belgilangan qismi uchun kontrakt-to'lovi **talabani o'z hisobidan** to'lanadi.

4. O'quv jarayoning BuxDU uchun belgilangan qismi davrida grant asosida tahsil olayotgan talaba akademik yil mobaynida **GPA ko'rsatkichi 4.0** dan past bo'lsa keyingi o'quv yilidan kontrakt asosida o'qishni davom ettiradi.

5. Imtihonlar natijasiga ko'ra bir ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan grantlar o'rniga uch va undan ortiq abituriyent davogarlik qilganda abituriyentlarning maktab, kollej, akademik litsey tomonidan berilgan diplom (attestat) ilovalarida ko'rsatilgan o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi bo'yicha eng yuqori reyting ko'rsatkichiga ega abituriyent grant o'rniga tavsiya qilinadi.

6. Abituriyentlarning grant asosida o'qishga qabul qilinishi quyidagi parametrlarga asosan aniqlanadi:

#### **Iqtisodiyot qo'shma ta'lim dasturi uchun:**

- Abituriyentlarning imtihonlardan to'plagan umumiy ballari (Bunda abituriyent har bir fandan eng kamida 80% natija ko'rsatishi kerak);

**"Amaliy matematika va informatika", "Informatika va axborot texnologiyalari " va "Xalqaro mehmonxona menejmenti" ta'lim dasturlari uchun**

- Matematika fanidan o'tkazilgan imtihondan kamida 80% natija ko'rsatishi;

- Ingliz tilidan o'tkazilgan test natijalaridan kamida 80% ko'rsatkich korsatishi yoki amaldagi Ingliz tilini bilish darajasini tasdiqlovchi milliy yoki xalqaro sertifikatni taqdim qilishi (Kamida B1) *(Ingliz tilini bilish darajasini tasdiqlovchi milliy yoki xalqaro sertifikat taqdim etgan grant o'rniga davogarlik qiluvchi abituriyentlarning to'plagan jami ballari teng kelganda (2 grant o'rni uchun 3 va undan ko'p abituriyent to'g'ri kelganda) ingliz tilini bilish darajasini tasdiqlovchi milliy yoki xalqaro sertifikatda ko'rsatilgan abituriyentning natijasi grant o'rniga tavsiya etish uchun asos bo'ladi).*

E'tiboringiz uchun rahmat! Savollar bo'lsa marhamat.

**Kengash raisi: O.X. Xamidov** ushbu masala bo'yicha so'zga chiquvchilar bormi?

Ushbu masala bo'yicha universitet prorektorlaridan R.G'. Jumayev, A.T. Jo'rayev, O'.U. Rashidov, dekanlar: H.O. Jo'rayev, H.I. Eshonkulov, N. Atabayev, D. Yavmutov so'zga chiqib o'z takliflar, fikr-mulohazalarini bildirishdi. Qo'shma ta'lim dasturlari bakalavr yo'nalishlarida grantga qabul qilish tartibini tasdiqlash taklifini qo'llab – quvvatlashdi.

#### **Kun tartibidagi masala yuzasidan Kengash qaror qiladi:**

1. Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqilashtirish bo'limi boshlig'i O.H.Rahimovning BuxDU qo'shma ta'lim dasturlariga 2022/2023 o'quv yilidan bakalvriyat qo'shma ta'lim dasturlariga 8 ta grant o'rni (har bir yo'nalishga 2 tadan) berish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

2. Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqilashtirish bo'limi boshlig'i O.H.Rahimovga: Hamkor OTMlar va DTM Buxoro filiali bilan kelishilgan holda qo'shma ta'lim dasturlariga kirish imtihonlari adolatli va shaffof tarzda tashkil qilinsin.

3. Grant o'rinlariga tanlab olish quyidagi sxema asosida amalga oshirilsin:

#### **Iqtisodiyot qo'shma bakalvriyat ta'lim dasturi uchun:**

- Abituriyentlarning har ikkala bosqich (1-bosqichda DTM tomonidan matematika fanidan test olinadi, 2-bosqichda DTM tomonidan rus tili fanidan test olinadi) imtihonlardan to'plagan umumiy ballari natijasiga ko'ra eng yuqori ball to'plagan ikki nafar abituriyent grant o'rinlariga o'qishga qabul qilinadi (bunda abituriyent har bir fandan eng kamida 80% natija ko'rsatishi kerak).

**"Amaliy matematika va informatika", "Informatika va axborot texnologiyalari" va "Xalqaro mehmonxona menejmenti" ta'lim dasturlari uchun:**

- 1-bosqichda DTM tomonidan matematika fanidan test imtihonidan kamida 80% natija ko'rsatgan abituriyent 2-bosqichga grant o'rni uchun bo'ladigan tanlovda ishtirok etishi mumkin;

- Ikkinchi bosqichda Ingliz tilidan o'tkazilgan test natijalaridan kamida 80% natija ko'rsatganda yoki amaldagi Ingliz tilini bilish darajasini tasdiqlovchi milliy yoki xalqaro sertifikatni (Kamida B1) taqdim qilganda abituriyent grant o'rinlari uchun saralanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

*Ingliz tilini bilish darajasini tasdiqlovchi milliy yoki xalqaro sertifikat taqdim etgan grant o'rniga davogarlik qiluvchi abituriyentlarning to'plagan jami ballari teng kelganda (2 grant o'rni uchun 3 va undan ko'p abituriyent to'g'ri kelganda) ingliz tilini bilish darajasini tasdiqlovchi milliy yoki xalqaro sertifikatda ko'rsatilgan abituriyentning natijasi grant o'rniga tavsiya etish uchun asos bo'ladi.*

4. Grant (Grant asosida o'qishga qabul qilingan talabalarga stipendiya berilmaydi) o'rinlari faqat bakalavriat qo'shma ta'lim dasturlariga har bir dastur uchun 2 tadan BuxDUda amalga oshadigan qismi uchun amal qilinishi belgilansin (hamkor OTMda o'qish mobaynida talaba kontrakt to'lovni o'z hisobidan to'laydi).

5. O'quv jarayoning BuxDU uchun belgilangan qismi davrida grant asosida tahsil olayotgan talaba akademik yil mobaynida **GPA ko'rsatkichi 4.0** dan past bo'lsa keyingi o'quv yilidan kontrakt asosida o'qishni davom ettirishi belgilansin.

6. Imtihonlar natijasiga ko'ra (shuningdek, Ingliz tilini bilish darajasini tasdiqlovchi milliy yoki xalqaro sertifikat natijalari teng bo'lganda) bir ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan grantlar o'rniga uch va undan ortiq abituriyent davogarlik qilganda abituriyentlarning maktab, kollej, akademik litsey tomonidan berilgan diplom (attestat) ilovalarida ko'rsatilgan o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi bo'yicha eng yuqori reyting ko'rsatkichiga ega abituriyent grant o'rniga tavsiya etilsin.

---

## **7.11. Ilmiy ijodiy ta'til berish haqida**

### **1. Raqamli iqtisodiyot va inson resurslarini rivojlantirish IT markazi boshlig'i, 0,25 stavkada ishlayotgan "Marketing va menejment" kafedrasi o'qituvchisi B.I. Adizovga ilmiy ijodiy ta'til berish to'g'risida**

**ESHITILDI: G.Zaripov** (Ilmiy ishlar va innovatsiya bo'limi boshlig'i) – kengash a'zolariga Raqamli iqtisodiyot va inson resurslarini rivojlantirish IT markazi boshlig'i B.I. Adizovning bir necha yillar davomida falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun ilmiy ish olib borayotganligi aytib o'tdi. "Innovatsion rivojlanish sharoitida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari raqobatbardoshligini oshirish (Buxoro viloyati misolida)" (08.00.05 – Хизмат кўрсатиш тармоқлари иқтисодиёти) nomli doktorlik dissertatsiyasi mavzusi OAKning dissertatsiya mavzularini ro'yxatdan o'tkazish elektron bazasiga kiritilganligi, Talabgorning doktorlik dissertatsiyasi tadqiqot natijalari bo'yicha jami 35 ta ilmiy ish e'lon qilingan. Ularning 13 tasi respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlari materiallari to'plamlarida, 12 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, jumladan, 1 tasi respublika jurnallarida va 11 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. 10 dan Ortik mualliylik guvoxnomalari muallifi ekanligi haqida axborot berdi va B.I. Adizovga 1 oy muddatda (2022-yil 05-sentyabrdan 05-oktyabrgacha va 2022-yil 15-noyabrdan 30-dekabrgacha) ijodiy ta'til berishni kengashdan so'radi.

Kengash raisi mazkur masalani kengash a'zolari hukmiga havola qildi.

Kengash a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab – quvvatladilar. Qarshilar va betaraflar bo'lmadi.

### **Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, kengash qaror qiladi:**

1. Buxoro davlat universiteti Raqamli iqtisodiyot va inson resurslarini rivojlantirish IT markazi boshlig'i B.I. Adizovga (2022-yil 05-sentyabrdan 05-oktyabrgacha va 2022-yil 15-noyabrdan 30-dekabrgacha) muddatda doktorlik (PhD) dissertatsiyasi mavzusini yozib tugatish maqsadida ijodiy ta'til berilsin.

2. B.I. Adizovning ijodiy ta'til davri uchun yo'l xaritasi tayyorlansin va shu asosida ishlar amalga oshirilsin (mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiya bo'limi boshlig'i G.Zaripov va B.I. Adizov).

3. B.I. Adizovga ijodiy ta'tildan qaytgandan so'ng kengashga o'rnatilgan tartibda hisobot taqdim etsin (mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiya bo'limi boshlig'i G.Zaripov va B.I. Adizov).

4. Mazkur qarorning ijro nazorati Ilmiy ishlar va innovatsiya bo'limi boshlig'i G.Zaripov zimmasiga yuklatilsin.

### **1. Sport nazariyasi va metodikasi kafedrası mudiri R.S.Shukurovga ilmiy ijodiy ta'til berish to'g'risida**

**ESHITILDI: G. Zaripov** (Ilmiy ishlar va innovatsiya bo'limi boshlig'i) – kengash a'zolariga Sport nazariyasi va metodikasi kafedrası mudiri, professor R.Shukurovni bir necha yillar davomida falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun ilmiy ish olib borayotganligi aytib o'tdi. "Talabalarda turon yakkakurashi vositasida sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirish" mavzusidagi (13.00.01-Pedagogika nazariyasi.Pedagogik ta'limotlar tarixi) ixtisosligida doktorlik dissertatsiyasi mavzusi OAKning dissertatsiya mavzularini ro'yxatdan o'tkazish elektron bazasiga kiritilganligi, R.S.Shukurovning doktorlik dissertatsiyasi tadqiqot natijalari 27 ta ilmiy-uslubiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'i asosida 2 ta o'quv qo'llanma, 1 ta darslik, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, 3 tasi xorijiy jurnallarda 7 tasi respublika jurnallarida, ilmiy-amaliy anjumanlarda jami 12 ta shundan xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda 7 ta, respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda 5 ta tezislari chop etilgan nashr etilgan. 1 ta hammualliflikda elektron o'quv qo'llanma guvohnomasi olingan. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi tomonidan 3 ta mualliflik guvohnomalari olingan. Kengash a'zolariga Buxoro davlat universiteti Sport nazariyasi va metodikasi kafedrası mudiri, professor R.S.Shukurovga 1 oy muddatda (05.09.2022-yildan - 05.10.2022-yilgacha) ijodiy ta'til berishni kengashdan so'radi.

Kengash raisi mazkur masalani kengash a'zolari hukmiga havola qildi.

Kengash a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab – quvvatladilar. Qarshilar va betaraflar bo'lmadi.

#### **Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, kengash qaror qiladi:**

1. Buxoro davlat universiteti Sport nazariyasi va metodikasi kafedrası mudiri R.S.Shukurovga (05.09.2022-05.10.2022y) 1 oy muddatda doktorlik (PhD) dissertatsiyasi mavzusini yozib tugatish maqsadida ijodiy ta'til berilsin.

2. R.S.Shukurovning ijodiy ta'til davri uchun yo'l xaritasi tayyorlansin va shu asosida ishlar amalga oshirilsin (mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiya bo'limi boshlig'i G.Zaripov va R.S.Shukurov).

3. R.S.Shukurovga ijodiy ta'tildan qaytgandan so'ng kengashga o'rnatilgan tartibda hisobot taqdim etsin (mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiya bo'limi boshlig'i G.Zaripov va R.S.Shukurov).

4. Mazkur qarorning ijro nazorati Ilmiy ishlar va innovatsiya bo'limi boshlig'i G.Zaripov zimmasiga yuklatilsin.

---

### **7.12. Ish jarayonida yo'l qo'ygan kamchiliklari uchun berilgan intizomiy jazo ("hayfsan")ni muddatidan oldin bekor qilish to'g'risida**

**7.12.1. Ish jarayonlarida yo'l qo'ygan kamchiliklari uchun Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i M. Husenovga berilgan intizomiy jazo ("hayfsan")ni muddatidan oldin bekor qilish to'g'risida**

### **7.12.1. Ish jarayonlarida yo‘l qo‘ygan kamchiliklari uchun Raqamli ta‘lim texnologiyalari markazi boshlig‘i M. Husenovga berilgan intizomiy jazo (“hayfsan”)ni muddatidan oldin bekor qilish to‘g‘risida**

**ESHITILDI: R.G‘. Jumayev** (o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor) kengash a‘zolariga ish jarayonlarida yo‘l qo‘ygan kamchiliklari uchun Raqamli ta‘lim texnologiyalari markazi boshlig‘i M. Husenovga berilgan intizomiy jazo (“hayfsan”)ni muddatidan oldin bekor qilish to‘g‘risida so‘zga chiqib, Raqamli ta‘lim texnologiyalari markazi boshlig‘i M. Husenovga berilgan intizomiy jazo (“hayfsan”) uning shu davr mobaynida o‘z yo‘nalishi, lavozim majburiyati, jamoatchilik ishlaridagi faoliyati hamda yuklatilgan boshqa qo‘shimcha topshiriqlarni o‘z vaqtida ma‘suliyat bilan bajarib kelayotganligini inobatga olib muddatidan oldin bekor qilish taklifini bildirdi.

Ushbu masala bo‘yicha universitet kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi B. Kobilov so‘zga chiqib, quyidagilarni bildirdi. Raqamli ta‘lim texnologiyalari markazi boshlig‘i M. Husenov o‘z lavozim majburiyatlarini to‘laqonli bajarib, universitetning raqamli ta‘lim jarayonlari sifatini oshirishda shaxsiy o‘rnak ko‘rsatganligini e‘tiborga olib, udan intizomiy jazo (“hayfsan”)ni muddatidan oldin bekor qilish taklifini qo‘llab-quvvatladi.

Kengash a‘zolari ushbu masala bo‘yicha o‘z taklif va fikrlarini bildirishdi.

Kengash raisi O.X.Xamidov kengash a‘zolaridan ish jarayonlarida yo‘l qo‘ygan kamchiliklari uchun Raqamli ta‘lim texnologiyalari markazi boshlig‘i M. Husenovga berilgan intizomiy jazo (“hayfsan”)ni muddatidan oldin bekor qilish taklifini ochiq ovoz berish yo‘li bilan qo‘l ko‘tarib tasdiqlab berishni so‘radi.

Hamma rozi, qarshilar va betaraflar yo‘q.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘. Jumayevning ish jarayonlarida yo‘l qo‘ygan kamchiliklari uchun Raqamli ta‘lim texnologiyalari markazi boshlig‘i M. Husenovga berilgan intizomiy jazo (“hayfsan”)ni muddatidan oldin bekor qilish to‘g‘risidagi axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.
2. Kengash a‘zolarining qaroriga ko‘ra, M. Husenovga berilgan intizomiy jazo (“hayfsan”) uning olib borayotgan samarali mehnatini inobatga olgan holda muddatidan oldin bekor qilinsin.
3. Ushbu qaror ijro nazorati Inson resurslarini boshqarish departamenti boshlig‘i U.A.Fayziyeva zimmasiga yuklatilsin.

---

### **7.12. Ish jarayonida yo‘l qo‘ygan kamchiliklari uchun berilgan intizomiy jazo (“hayfsan”)ni muddatidan oldin bekor qilish to‘g‘risida**

#### **7.12.2. Ish jarayonlarida yo‘l qo‘ygan kamchiliklari uchun Raqamli ta‘lim texnologiyalari markazi boshlig‘i M. Husenovga berilgan intizomiy jazo (“hayfsan”)ni muddatidan oldin bekor qilish to‘g‘risida**

**ESHITILDI: R.G‘. Jumayev** (o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor) kengash a‘zolariga ish jarayonlarida yo‘l qo‘ygan kamchiliklari uchun Iqtisodiyot kafedrasida katta o‘qituvchisi (PhD) Navruz zoda Zebiniso Baxtiyorovnaga berilgan intizomiy jazo (“hayfsan”)ni muddatidan oldin bekor qilish to‘g‘risida so‘zga chiqib, Iqtisodiyot kafedrasida katta o‘qituvchisi (PhD) Navruz zoda Zebiniso Baxtiyorovna berilgan intizomiy jazo (“hayfsan”) uning shu davr mobaynida o‘z yo‘nalishi бўйича яратган дарслик, ўқув қўлланма, электрон ўқув қўлланма, ОАК эътироф этган журналларда мақолалар нашр эттирганлигини, jamoatchilik ishlaridagi faoliyati hamda yuklatilgan boshqa qo‘shimcha topshiriqlarni o‘z vaqtida ma‘suliyat bilan bajarib kelayotganligini inobatga olib muddatidan oldin bekor qilish taklifini bildirdi.

Ushbu masala bo‘yicha universitet kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi B. Kobilov so‘zga chiqib, quyidagilarni bildirdi. Iqtisodiyot kafedrasida katta o‘qituvchisi (PhD) Navruz zoda Zebiniso Baxtiyorovna o‘z lavozim majburiyatlarini to‘laqonli bajarib, universitetning raqamli ta‘lim jarayonlari sifatini oshirishda shaxsiy o‘rnak ko‘rsatganligini e‘tiborga olib, udan intizomiy jazo (“hayfsan”)ni muddatidan oldin bekor qilish taklifini qo‘llab-quvvatladi.

Kengash a‘zolari ushbu masala bo‘yicha o‘z taklif va fikrlarini bildirishdi.

1. O'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'. Jumayevning ish jarayonlarida yo'l qo'ygan kamchiliklari uchun Iqtisodiyot kafedrası katta o'qituvchisi (PhD) Navruz zoda Zebiniso Baxtiyorovnaga berilgan intizomiy jazo ("hayfsan")ni muddatidan oldin bekor qilish to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Kengash a'zolarining qaroriga ko'ra, Navruz zoda Zebiniso Baxtiyorovnaga berilgan intizomiy jazo ("hayfsan") uning olib borayotgan samarali mehnatini inobatga olgan holda muddatidan oldin bekor qilinsin.
3. Ushbu qaror ijro nazorati Inson resurslarini boshqarish departamenti boshlig'i U.A.Fayziyeva zimmasiga yuklatilsin.

**O.X. Xamidov (Kengash raisi)** Buxoro davlat universiteti kengashi raisi 1-yig'ilish kun tartibiga kiritilgan masalalar muhokama qilinganligini va kengash o'z ishini yakunlaganligini ma'lum qildi. Kengash o'z ishini tugatdi.

**BuxDU kengash raisi**

**BuxDU kengash kotibi**



**O.X. Xamidov**

**N.G. Dilova**